

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR
KADRALARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH
BOSH ILMUY - METODIK MARKAZI

O'ZDJTU HUZURIDAGI ChET TILLARNI O'QITISHNING
INNOVATSIYAVIY METODIKALARINI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMUY-AMALIY MARKAZI

FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH: SHARQ TILLARI

**“SHARQ TILLARI YO'NALISHIDA TADQIQOTLAR OLIB BORISHDA
TIZIMLI TAHLIL”
MODULI
MODULI BO'YICHA**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2018

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018 yil 27 mart 274-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: f.f.d., professor Z.N.Xudaybergenova

Taqrizchilar: Sh.Usmanova filologiya fanlari doktori, professor (TDShI)
D.Lutfullayeva filologiya fanlari doktori, professor (TDO‘TAU)

O‘quv -uslubiy majmua O‘zDJTU huzuridagi RIAIM Kengashining 2018 yil 11 yanvardagi 11-sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I.ISHCHI O'QUV DASTURI	4
II.MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI	7
III. AMALIY MATERIALLAR MAZMUNI	11
VI. KEYSLAR BANKI.....	11
V. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI	50
Y.GLOSSARIY.....	54
YI. ADABIYOTLAR RO'YXATI	59

I.IShChI O'QUV DASTURI

Kirish

Dastur O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta`lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini `ayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tg`risida”gi PF-4732-son Farmonidagi ustuvor yo`nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo`lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta`lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi. “Sarq tillari yo`nalishida tadqiqotlar olib borishda tizimi taxlil” modulining o`quv uslubiy majmuasi rejasida O`zbekiston Respublikasida oliy ta`lim standarti talabiga mos keluvchi darslar mavzulari keltirilgan.

Mazkur modul fan sifatida tili o`rganilayotgan mamlakatlarning badiiy adabiyot namunalarini o`qish va mazmunini anglash, davriy matbuot nashrlarida bayon etilgan asosiy voqeа-hodisalar to`risida o`qib, mahlumotga ega bo`lishi hamda ularni og`zaki so`zlab berish, mazmunini yozma bayon etishga o`rgatishni ko`zda tutiladi. Ushbu fandan o`tiladigan amaliy mashg`ulotlarda matn bilan ishslash asosida tinglovchining nutqiy malakasini oshirish orqali turli xil nutq uslublarini bilib olish imkoniyatini hosil qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta`lim sohasi bo`yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo`yiladigan umumiylar malaka talablari va o`quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo`lib, bu orqali oliy ta`lim muassasalari pedagog kadrlarining sohaga oid zamonaviy ta`lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg`or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o`quv jarayoniga keng tatbiq etish, chet tillarini intensiv o`zlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahoratini, ilmiy faoliyatini muntazam yuksaltirish, oliy ta`lim muassasalarida o`quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishni tizimli tahlil qilish, shuningdek, pedagogik vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qilish bilan bog`liq kompetensiyalarga ega bo`lishlari ta`minlanadi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo`nalishining o`ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining maxsus fanlar doirasidagi bilim, ko`nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo`yiladigan talablar o`zgartirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Mazkur kursning maqsadi bo`lib tinglovchilarini bilishning ilmiy usullari tizimi bilan qurollantirish, ilmiy ijodga qiziqtirish hamda iqtisodiyot sohasida ilmiy tadqiqot ko`nikmalarini hosil qilish hisoblanadi. Bundan kursning quyidagi asosiy vazifalari kelib chiqadi:

- 1.Tinglovchilarini bilish nazariyasi bilan tanishtirish.
- 2.Ularni bilishning dialektik usullari bilan qurollantirish.

3.Ularning iqtisodiyot sohasidagi Ilmiy tadqiqot metodologiyasini bilishlarida ko'maklashish.

Modul mavzu va topshiriqlari

Sharq tillari sohasida faoliyat olib boruvchi professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish. Ilmda tizimli tahlil tushunchasi. Tadqiqot va darsni tashkil etish uchun ma'lumot yig'ish metodologiyasi: birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar yig'ish va ushbu ma'lumotlarni tahlil qilish. Ma'lumotlar tahlil qilish usullasri: lingvistik tahlil, diskurs tahlil, sotsiolingvistik tahlil, kontentni va kontekstni tahlil etish mexanizmlari. Tahlil etish natijasida ma'lumot tayyorlash: maqola, kitob va dissertatsiya shakldagi tahliliy materiallar yozish. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiq usullari: sinxron aspekt, diaxron aspektdagi tilshunoslik tahlil usullari.

Maxsus fanlar bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- Sharq tilining ilmiy ijodning umummetodologik tadqiqotlarning maxsus va xususiy usullariga asosiy e'tibor qaratishi;
- Sharq tili yunalishi tinglovchilarni bilishning ilmiy usullari tizimi bilan qurollantirish, ilmiy ijodga qiziqtrish hamda ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini hosil qilish;
- sharq tilining rivoji va til doirasidagi asosiy ekstraliningvistik jihatdan shakllanishning asosiy omillari hamda tarixiy manbalari, uning dialektik xilma-xilligi (kognitiv stilistika, lingvokulg'turologiya, kommunikativ lingvistika);
- muloqotning og`zaki va yozma turlari; sharq tilida fikrni lisoniy ifoda qilish usullari va ularning nutq og`zaki va yozma shakllarida qo'llanilishi qonuniyatları;
- nutqning dialogik va monologik shakllari haqida tasavvurga ega bo`lishi;
- tilning zamonaviy holati tavsifi, stilistik vositalar, grafika, leksik-grammatik stilistik bo`yoqdor vositalar, so`z o`yini, boshqa tillardan so`z kirib kelishining umumiylстик qo'llanishini;
- dialektal leksikaning asosiy xususiyatlari haqida **bilimlarga** ega bo`lishi lozim.

Tinglovchi:

- Sharq tili yunalishi tinglovchilari ilmiy tadqiqot ko'nikmalariga ega bo`lishi;
- Umumilmiy va maxsus ishlab chiqilgan metodlari negizida yangi ilmiy bilim olish usullari ko'nikmasiga ega bo`lishi;
- Jahonning turli davlatlari madaniyati xususiyatlarini qiyoslash, tahlil qilish **ko'nikmalariga ega bo`lishi lozim.**

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Fan ijtimoiy ongning alohida shakli sifatida jamiyat taraqqiyotining nisbatan yuqori darajasida vujudga keladi. Insonning fan shakllangunga qadar bo‘lgan ongi bundan 1 – 1,5 mln. yil oldin mehnat qurollarini yaratish qobiliyati hamda nutqning shakllanishi bilan paydo bo‘ldi. So‘ngra, 100-150 ming yil oldin ijtimoiy ongning din va diniy sig‘inislarni keltirib chiqaruvchi mifologik shakli paydo bo‘ldi. Ijtimoiy ong ilmiy shaklining vujudga kelishi bir necha ming yilni o‘z ichiga olib, uch bosqichdan iborat: birinchi – XVII asrga qadar bo‘lgan davr, bunda fanning asosiy vazifasi bo‘lib dunyoni tushuntirish uchun bilimlarni to’plash hisoblangan; ikkinchi bosqich – XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmiga qadar bo‘lgan «texnologik» bosqich, ya’ni tabiatning ochib berilgan qonunlari asosida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida mazkur qonunlarni faol qo’llash ro‘y berib, yangi texnik vositalar va texnologiyalar paydo bo‘ldi; fanning uchinchi, zamonaviy bosqichi XIX asrning so‘nggi 1/3 qismidan boshlab o‘zgartirish paradigmasi bilan birga bormoqda. XX asrning 50-yillaridagi zamonaviy ilmiy texnika inqilobining boshlanishi bilan fan jadal ravishda jamiyatning bevosita ishlab chiqaruvchi kuchiga aylanib bormoqda.

Ijtimoiy ongning alohida shakli sifatida fan ijtimoiy borliqni aks ettiruvchi ob’ektiv bilimlar tizimidan iborat. Mazkur tizim quyidagi kichik tizimchalarni qamrab oladi: tabiat to’g’risidagi fanlar; texnikaviy fanlar (buyumlarning sun’iy tabiat); jamiyat to’g’risidagi fanlar va inson to’g’risidagi fanlar. Jamiyat to’g’risidagi fanlarning o’zi falsafa, iqtisodiyot, boshqaruv, pedagogika, til va madaniyat to’g’risidagi fanlarni o‘z ichiga oluvchi murakkab tizimdan iborat.

Ijtimoiy amaliyotning alohida sohasi sifatida fan quyidagi kichik tizimchalarni o‘z ichiga oluvchi tizim hisoblanadi:

- 1.Nazariyalar.
- 2.Metodologiyalar.
- 3.Olim va mutaxassis kadrlar.

4.Bilimlarni to’plash, saqlash, uzatish va ko’paytirishni ta’minlovchi axborot tizimchasi.

5.Ilmiy muassasalar tizimchasi: akademiyalar, oliy o’quv yurtlari, ilmiy-tekshiruv institutlari, laboratoriyalar, byuro, eksperimental bazalar va boshqalar.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Sharq tillari yo‘nalishida tadqiqotlar olib borish metodologiyasi” moduli mazmuni o‘quv rejadagi diskurs tahlili o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning til ko‘nikmalarini talab darajasida qo’llay olish malakasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagisi o‘rnini

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar til ko‘nikmalarini mos ravishda amalda qo’llash malakasi va kasbiy salohiyatlarini rivojlantiradilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			Mustaqil ta'lif	
		Auditoriya o'quv yuklamasi				
		Jami	jumladan			
1.	Ilmda tizimli tahlil tushunchasi	2	2			
2.	Ma'lumot yig'sh metodologiyasi	2	2			
3.	Ma'lumotlarni tahlil qilish usullari	2		2		
4	Tahlil etish natijasida ma'lumot yorlash	4		2	2	
5	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	6		4	2	
		16	4	8	4	

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- noan'anaviy o'qitish (interaktiv, konferensiya, debat);
- davra suhbatlari (muhokama etilayotgan muammo va uning yechimi bo'yicha mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli raqamlar taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

BAHOLASH MEZONI

Nº	Baholash mezoni	Maksimal ball	Izoh
1	Portfolio yaratish- 1,5ball Keys tuzish – 1,0 ball	2,5	Integrallashgan til ko'nikmalarini har biri bo'yicha aniq topshiriqlar bajariladi va baholanadi

II.MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI.

SWOT- TAHLIL JADVALI TEXNOLOGIYASI

SWOT termini inglizcha kuchli, kuchsiz, imkoniyat, havf so'zlarining bosh harflaridan tuzilgan. Bu texnologiyadan tashkilot yoki biror korxonaning kelgusidagi strategik rivojlanish mexanizmlarini tahlil etishda foydalanish qulay.

DAVRA SUHBATLARI METODI

Davra suhbatida ma'ruzachi o'qituvchi bosh tashkilotchi bo'lib qoladi. Davra suhbatlari ko'pincha tinglovchilarga tanish yoki yaqin mavzularda o'tkaziladi. Davra suhbat mavzulari, rejalar, savollari tinglovchilarga avvaldan bir necha kun oldin tarqatiladi.

Tinglovchilar uchun mustaqil tayyorgarlik ko'rishga, ularni bir-birlari bilan avvaldan o'zaro fikr almashishga, kutubxona, internetdan ayrim ma'lumotlarni toplash, qayta ishslash, kichik matn tuzish imkoniyati yaratiladi. Davra suhbatining afzalligi shundaki, har bir tinglovchi individual tayyorgarlik ko'radi. Har ikki tomon davrani o'tkazishga tayyorgarlik bilan keladi. Suhbatni o'qituvchi, goho lider tinglovchi olib borishi mumkin.

MUNOZARA METODI

Disput- bu ikki yoki ko'proq kishilarning keskin chegaralangan qoidalar doirasida og'zaki olib boriladigan bahsi, munozarasi, masala talashuvidir. Disput mavzusi tayyorgarlik ko'rish uchun o'tkazishdan oldin tinglovchilarga ma'lum qilinadi.

Tinglovchilarga bilim berishga mo'ljallangan disputda kamida bitta rais va ikki guruhning har biridan bir nafardan so'zlovchi qatnashadi. Disputni ochuvchi birinchi tinglovchi qo'yilgan taklifni ma'qullab chiqsa, ikkinchisi unga qarshi chiqadi, ya'ni opponent bo'ladi.

So'zlovchilarga 10 minutdan, har ikki guruhdan ikkitadan ortiq bo'limgan qo'shimcha qilishga chiqadigan tinglovchilarning har biriga 5 minutdan vaqt beriladi. Ikki marta so'zga chiqishga ruxsat etilmaydi. So'zga chiquvchilarning barchasi raisga murojaat etishadi va uning qarori qat'iy bo'lib, disputning mavzudan chetga chiqib ketmasligini nazorat qiladi.

MUNOZARA LEKSIYA METODI

O'qituvchi leksiya o'qiydi, auditoriyaning savollariga javob beradi va o'z navbatida tinglovchilarga savollar bilan hujum qiladi. Bunday leksiyalarda tinglovchilarning faolligi ancha yuqori bo'ladi. Tinglovchilar soni 20 tadan ortiq bo'limganda munozarali leksiya metodi an'anaviy leksiyalarga qaraganda afzal bo'ladi, chunki bunday holda o'qitishning kichik guruhlarda qo'llaniladigan metodlarini tatbiq etishga keng imkoniyatlar tug'iladi.

TARMOQLAR METODI (KLASTER)

Fikrlarning tarmoqlanishi bu pedagogik strategiya bo'lib u tinglovchilarni biror-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib tinglovchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravshan ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval tinglovchilarning fikrlash qobiliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda tinglovchilarning shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

MULOQOT TRENINGI

Ushbu trening tinglovchilarda dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o'z fikrini erkin holda bayon eta olishga hamda ularda bahslashish madaniyatini

tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, odatda bunday mashg‘ulot tinglovchilarni kichik guruhlarga bo‘lgan holda o‘tkaziladi.

FSMU TEXNOLOGIYaSI

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, babs munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o‘quv seminari haqida fikrlarini bilish maqsadida), yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishiga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarni o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

BLIS-SO‘ROV TEXNOLOGIYaSI

Blis- pedagogikada tezkor, bir zumlik ma’nosida ishlatiladi.

Bu texnologiyada tinglovchilarga o‘rganilgan butun mavzu yoki uning ma’lum qismining asosiy tushunchalari va tayanch iboralari bo‘yicha tuzilgan savollarga javob (og‘zaki, yozma, biror jadval yoki diagramma ko‘rinishida) berishlari taklif etiladi.

BLIS – O‘YIN TEXNOLOGIYaSI

Ushbu texnologiya tinglovchilarni harakatlar ketma–ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan predmeti asosida ko‘p, xilma–xil fikrlardan, ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida tinglovchilar o‘zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o‘tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to‘liq sharoit yaratib beradi.

SINEKTIKA METODI

Bu metod amaliy, seminarlar va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun qulay bo‘lib, «aqliy hujum» metodiga yaqin. Bunda tinglovchi darsda qo‘yilgan muammoni hal qilish yuzasidan analogiyaga asoslangan holda o‘z fikrlarini, qarashlarini olg‘a suradi. Bunda analogiya bevosita, shaxsiy, ramziy va xayoliy bo‘lishi mumkin.

GALEREYaNİ AYLANISH METODI

Kichik guruhlarning barcha a’zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir kichik guruh o‘zlariga berilgan muammoga belgilangan vaqt ichida fikrlarini yozib, javoblari yozilgan varaqlarini boshqa guruh bilan almashtiradi. Javoblarni olgan guruh ularni baholaydi va tugal bo‘lmasa o‘z variantlari bilan to‘ldiradi. So‘ngra guruhlar fikrlari umumlashtirilib, eng yuqori ballga arziyadigan to‘g‘ri va mukammal javoblar tanlab olinadi.

SINDIKAT METODI

Guruh uchta kichik guruhlarga bo‘linadi. Bunda taklif etilayotgan topshiriq uch xil nuqtai nazardan hal etilish zarur.

SKARABEY TEXNOLOGIYASI

“Skarabey” interaktiv texnologiya bo‘lib, u tinglovchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya tinglovchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o‘rganayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash

imkonini beradi. U, ayni paytda turli g‘oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog‘liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

III. AMALIY MATERİALLAR MAZMUNI

1-ma’ruza Ilmda tizimli tahlil tushunchasi

Darsning o‘quv maqsadi: Ilmshunoslikning “fan haqidagi fan” sifatidagi alohida tabiat haqida, filolog faoliyatining asosiy yo‘nalishlari,tizimli tahlil, ilmiy tadqiqot ishining tuzilishi kabi bir qator tushunchalarga izoh berish.

Tayanch tushunchalar: fan, filologiya, lingvistika, ilmiy tadqiqot, ilmshunoslik, filolog-olim, definisiya, filolog kasbiy faoliyatining sohalari.

Ilmshunoslikning “fan haqida fan” sifatidagi alohida tabiat

Sharq tillari sohasida faoliyat olib boruvchi professor- o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish uchun avvalo, “ilmshunoslik”, ya’ni “fanhaqidagi fan” tushunchasi bilan jiddiy va atroflicha tanishtirish, ularning bilim va tasavvurlarini kengaytirish darkor.

Bizning fanimiz “Sharq tillari yo‘nalishida tadqiqotlar olib borisgda tizimli tahlil” deb nomlanganligi sabab biz umumiy ko‘rinishda bo‘lsa ham, ilm-fan nima ekanligini tushunib olishimiz lozim.

Ilmshunoslik fani filologlar uchun filologik oliy o‘quv yurtida o‘qiy boshlagan davrdan va butun hayoti mobaynida kasbiy faoliyatiga aloqador ilmiy faoliyatning ma’lum shakllarini o‘rgatishga yo‘naltirilgan. Ilmiy bilimning soddadan murakkabga qarab o‘zgarishi, takomillashuvi jarayoni uni egallashda katta kuch va iroda talab etadi.

“Ilmiy ish asoslari” kursidan ko‘zlangan asosiy maqsad filologiya ilmining turli sohalarida faoliyat yuritayotgan izlanuvchilar uchun boshlang‘ich, eng zaruriy bilimlarni berish qilib belgilangan.

Ilmiy soha o‘ziga xos murakkabliklarga ega. Uning tabiatiga individuallik, keng qamrovlik, aniq faktik materiallarga asoslanganlik xos.

Ilmiy tadqiqot ishi va filolog faoliyatining asosiy yo‘nalishlari

Ilmiy faoliyat filologiya xususan, lingvistika bilan bog‘liq bo‘lganligi sabab, biz fanning ulkan dunyosida filologiya qanday o‘rinni egallashi, filologik fanlar orasida esa lingvistika qanday o‘rinni tutishini aniqlab olishimiz lozim.

Ilmiy tadqiqot ishi va filolog faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini aniqlashda eng avval ilmiy tadqiqot nima? U qanday amalga oshiriladi? U nima uchun kerak? Tilshunoslikda amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotning xususiyatlari nimadan iborat? kabi qator savollarga javob topishimiz zarur.

Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi — yangi ilmiy bilim olish. Bu xususiyati bilan u boshqa ishlardan farqlanadi. Yangi ilmiy bilim olish jarayonida voqelik haqidagi obyektiv bilimlar ishlab chiqiladi va bir tizimga birlashtiriladi. Ammo ma’lumki, fanda qandaydir bir yangi ilmiy dalilni aniqlash bilan kifoyalanilmaydi. Fan uchun yangi ilmiy dalillarni fan nuqtai nazaridan izohlash, uning umumiy bilishga oid, nazariy,

amaliy ahamiyatini belgilash. Avval noma'lum bo'lgan yangi jarayonlar va hodisalarini oldindan ko'ra bilish talab etiladi.

Ilmiy ish, qat'iy rejali faoliyat deb, baholanadi. Qat'iy reja asosida olib borilgan, zamonaviy usul va vositalar bilan ta'minlangan ilmiy tadqiqot tabiat va jamiyatdagi obyektiv qonuniyatlarni ochish va teran bilishga imkon yaratadi.

Demak, har qanday ilmiy tadqiqotning asosiya maqsadi dalillarni asoslash, tahlil qilish, tasniflash va bir tizimda birlashtirish ularni chuqr anglash, yangi natijalarni oldindan ko'ra bilib, hodisalarining kelgusidagi rivojini bashorat qilishdan iborat.

“Ilmiy tadqiqot asoslari” kursi Ilmiy ish asoslarining muhim bo'limi sifatida

“Bu nima?”, degan savolga birinchi javob tavsif, ya’ni definisiya bo‘ladi. Tavsif bu – maxsus iborada qayd etilgan tafakkur hosilasining alohida turi bo‘lib, noma'lumni ma'lum orqali tushuntirishga qaratilgan.

Odatda, tavsifda ikki tur xususiyatlari nomlanadi:

birinchilari bu, tavsiflanayotgan obyektlarni, hodisalarini umumiyl sinfiga, ya’ni bu obyekt qanday turga mansubligini ko‘rsatib beriladi,

ikkinchisi esa, xuddi shu turga kirgan obyektlardan tavsiflanayotgan obyektni farqlash imkoniyatini beruvchi xususiyatlardir.

Masalan, dialekt – bu tilning alohida turi, varianti bo‘lib, hududiy bog‘langan jamoa muloqotida ishlataladi. Bunda hattoki, eng sodda maishiy turmushga oid predmet, xususiyat va sifatlarning sanoqsiz ko‘pligini unutmaslik lozim. Ular bu xususiyat va sifatlariga ko‘ra xilma-xil sinflarga mansub deb topilishi va umuman boshqacha hatto, zid obyektlar bilan taqqoslanishi mumkin. Shuning uchun ham bitta obyektda bir nechta tavsiflar mavjud bo‘lib, bu tavsiflar biz mazkur obyektni qanday xususiyat va sifatlar nuqtai nazaridan o‘rganishimiz va o‘rganish jarayonida qanday obyektlar bilan taqqoslashimizga bevosita bog‘liqdir.

Tabiiyki, ilm-fan kabi o‘ta murakkab obyekt bir qator tavsiflarga ega, bu esa bizning maqsad va mavzuimizga muvofiq bo‘lgan jabha va yondashuvlarni topish imkoniyatini beradi. Mazkur jabhalarni tanlash “ilm-fan” tushunchasining mohiyatini tushunish biz uchun bizga “ filologiya fanning ma'lum sohasi va lingvistika mustaqil fan sifatida nima? ” degan savolga javob berish zaruriyati bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari tilshunoslik sohasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, degan ibora ostida nima yotganligini tushunib, anglab olish lozim.

Mutaxassis filologga ilmiy tadqiqot ishlarni olib borish ko‘nikmalari uning kasbiy faoliyatining barcha sohalarida – ilmiy, pedagogik, informatsion, tashkiliy, tashviqot kabilarda juda kerak bo‘ladi.

Fanning tavsifi: “ilm-fan” yangi bilimni izlash jarayoni, insonning ilmiy faoliyati, ilmiy izlanishning qayd etilgan natijasi sifatida

Ilm-fan nima?

Ilm-fan bu:

- tabiat, inson va jamiyat haqidagi juda aniq maksimal obyektivlashtirilgan bilimni olishga qaratilgan ilmiy izlanish jarayonidir;

- mazkur jarayon mobaynida olingen bilim, ilmiy axborot deb nomlanadi;
 - insonning ilmiy faoliyati, ilmiy bilimni olish, qayta ishlash va saqlashdan iborat bo‘lgan kasbiy faoliyatning turi hisoblanadi;
- Ilm-fanda tadqiq jarayonining kechishi va natijaviylik qarama-qarshi, o‘zaro zid qo‘yiladi.

Ilmiy bilim nima?

Ilmiy bilim nima? U oddiy, maishiy hamda estetik bilimga qarama-qarshi qo‘yiladi. U maksimal darajada obyektivlashtirilgan bilim bo‘lib, umummuhim xarakterga egadir. Chunki, u topilishning uslubi, joyi va vaqtiga bog‘liq bo‘lmagan holda ilmiy ongning unsuriga aylanadi. Ilmiy bilimni umummuhimligi va obyektivlashtirilganligi uni estetik bilimdan farqlaydi, chunki, estetik bilimda ijodkorning shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan individuallik asosiy muhim jihatlardan – qadriyatlardan biridir.

Demak, ilm-fan deganda kishikik jamiyatining o‘z-o‘zini va atrof olamni anglashga urinishi jarayonida qo‘lga kiritgan jamiki aniq, obyektiv, barcha uchun teng darajada muhim bo‘lgan bilimlari jamlanmasini tushunish darkor.

Ilmiy bilim xususiyatlari. Ilmiy bilim nazariy, konseptual xususiyatga ega voqelik sanaladi. Uning bu xususiyati ayniqsa, ilmiy va maishiy bilimni taqqoslaganda yorqin namoyon bo‘ladi. U ratsional va isbotlangandir (verifikatsiyalangan). Ilmiy bilimning o‘ziga xosligi uni inson ma’naviy faoliyatining maxsus sohasi sifatidagi fanning shakllanishi va mavjudligining xususiyatlari yo‘llarining o‘ziga xosligi bilan shartlanadi.

Ilm-fanda bilim olish bosh va bevosita maqsaddir. Inson faoliyatining boshqa sohalarida, bilim maqsadga erishishning alohida vositasi hisoblanadi. Biz buni masalan, moddiy ishlab chiqarishda kuzatishimiz mumkin.

Ilm-fanning rivojlanishiga kumulyativ xarakter xosdir: har bir tarixiy bosqichda ilm-fan o‘zining o‘tmishdagi yutuqlarini jamlaydi va har bir natijasini “...umumiylondi ajralmas qismi sifatida olib kiradi, ularni bilimni keyingi muvaffaqiyatlari bilan yo‘q qilmaydi, faqatgina qayta anglab aniqlik kiritadi”.

Zamonaviy fanda biron bir uslubning ustuvorligi haqida gapirish mumkin emas. Chunki, qo‘llangan uslublarning aspekti haddan ziyod keng qamrovli va xilma-xildir. Biroq, ikkita metodologik muhim omilni qayd etish lozim. Bulardan birinchisi: axborotni o‘zini tuzilmasi va umumiylondi xususiyatlarini maxsus o‘rganish zaruriyati paydo bo‘ldi. Uning sababi axborotni to‘plash va faoliyat yuritish jarayonini optimal darajada tashkillashtirish edi. Bu voqelik informatikani paydo bo‘lishiga olib keldi. Ikkinchisi esa, ilm-fanni ilmiy idrok etish, o‘rganish obyektiga aylanishidir. Buning xosilasi o‘laroq ilmshunoslik paydo bo‘ldi.

Ikki jarayondan – ilmiy bilimini differensiatsiya va integratsiyasidan – XX asrda integratsiya ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoldi. Buning sababi quyidagilardir:

1. Olim o‘z maqsadi qilib, voqeiylikning biron bir sohasini nafaqat tavsirini, balki ma’lum muammoni hal qilishini qo‘yadi, buni esa bitta fan doirasida emas, balki bir nechta fan kesishgan nuqtasida amalga oshirish mumkin.

Bunda o‘zaro ta’sirning eng keng tarqalgan shakllari mavjud.

- Bitta fan obyektini boshqa fan uslubi, metodi orqali o‘rganishdir. Masalan, lingvostatistika;

– Fanlardan birini tadqiqotning an'anaviy obyektiga ta'siridir.

Masalan, lingvosemiotika;

– yoki bitta obyektni turli fanlar tomonidan o'rganilishi.

Masalan, sotsiolingvistika.

2. Olim obyektni yaxlit, ko'p qirrali qamrab olishga intiladi, uni vazifalarning ma'lum tuzilmasi va to'plamiga ega bo'lgan tizim sifatida namoyon etishga harakat qiladi.

Jamiyatni fanga va fanni jamiyatga bo'lgan munosabatlari oxirgi paytda zid xarakterga ega: fan faqatgina atrofdagi dunyo haqida obyektiv bilimni oladi, biroq bu bilim nafaqat foyda, balki ziyan keltirishi ham mumkin.

Demak, bilimlar rivojining yuqori darajasi insondan tafakkur va kasbiy mahoratning tamoman yangi darajasini hamda yuqori ma'naviyat va axloqiy mas'uliyatni anglashni talab qiladi.

2-ma'ruza **Ma'lumot yig'sh metodologiyasi**

Darsning o'quv maqsadi: Tadqiqot va darsni tashkil etish uchun ma'lumot yig'sh metodologiyasi borasida ma'lumot berish.

Reja:

1. Birlamchi ma'lumot

2. Ikkilamchi ma'lumot

3. Ma'lumotlarni tahlil qilish

Tayanch tushunchalar: lingvistika, adabiyotshunoslik, ilmiy bilim, filologik bilim, filologik tadqiqot, o'xshashlik asosida isbotlash, ilmiy prinsip (ta'moyil), postulat (ta'kid), konvensionallik (umumkelishilganlik).

I.Nima uchun qayd etilgan mavzuga murojaat etish lozim?

Bu savolni qo'yilishi qiziqarli, axir filologik ta'limotning asosiy mazmunini tashkil qilgan barcha lingvistik va adabiyotshunoslik fanlari talabaning fakultetda tahlis olishining butun davrida o'rganiladi. Ehtimol, biz bu fanlarga xuddi "ichkaridan" qaragandek qaraymiz. Bunda biz javob bera olmaydigan savollar bor, ular qatoriga quyidagilar kiradi: nimaga bir biriga o'xshamagan lingvistika va adabiyotshunoslik filologiyaga mansub? Lingvistika fan sifatida adabiyotshunoslikdan nimasi bilan farqlanadi? Nimaga filologik bilim ilmiy hisoblanadi? Nimaga filologiya fakultetlarida filologiya deb nomlangan fan yo'q?

Agarda nazariylik va konseptuallik kabi xususiyatlar u yoki bu darajada antik davrda shakllangan odatiy tasavvurlarga mos kelsa, kumulyativlik xususiyati bu darajada bir ma'noli bo'lib namoyon bo'lmaydi. Filologiya uchun yagona tizimni tashkil qilmaydigan, unga, turli jabhalarda mavjud bo'lgan bilimlarning har xil turini birgalikda faoliyat yuritishi xosdir. Bunda rivojlanishning har bir davrida tadqiqotchilarining qiziqishi biron-bir yondashuv aniq aspekt, biron bir hukmronlik qilayotgan konsepsiya bilan bog'lanadi, qolganlari ortga chekinadi, diqqat e'tibordan chetda qoladi, ular yo'q bo'lmaydi, bekor qilinmaydi, ular go'yoki zahirada mavjud bo'ladi. Bu bilimga olimlar uni qayta anglab, fanni mavjudligining ilk, dastlabki bosqichlarida tushunish, talqin qilish va tushuntirish uchun qaytishlari mumkin. Eski

g‘oyani qaytadan yaratish jarayoni kechadi. Bilimlar to‘plashning bunday uslubi fan uchun emas, ko‘proq san’at uchun xosdir. Filologik bilimda ratsionallik va tasdiqlanganlik kabi xususiyatlarning namoyon bo‘lishi yuqori darajada xilma-xil ko‘rinishga ega.

Filologiya e’tiqodning emas, balki tafakkurning manbalariga asoslangan bo‘lsada, unda tadqiqotchi o‘zi fikrlash jarayonida tayanadigan ko‘plab qonuniyatlar (postulatlar) mavjud. Ular na isbotlanadi, na rad etiladi, ya’ni olimlar “toki biz ishonchliroq dalil-isbot yoki aksini topmagunimizga qadar buni shunday hisoblaymiz” deb kelishib oladilar. Konvensionallik boshqa fanlarga ham xosdir, aniq fanlarda olim o‘zining nazariy tuzilmalariga qonuniyatlar qachon kiritilishini aniq biladi: ular aniq va ongli xarakterga ega. Filologiyada qonuniyat sifatida aksariyat hollarda umum qabul qilingan holat, fikr namoyon bo‘ladi, u ilmiy tasavvurlar bilan emas, balki aqlidrok bilan shartlangan bo‘ladi. Bilimning bunday turi filologiyaning ajralmas va qonuniy unsuridir. Biroq, bilimning mazkur turini ilmiy bilim bilan kesishishi to‘g‘ri kelishi tadqiqotchidan alohida e’tiborni talab qiladi, Chunki, “umumiylilik”da ilmiy tafakkur jarayoniga turlicha kiritiladigan bilimning xilma-xil shakllari bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, bular quyidagilar ham bo‘lishi mumkin:

- ishonchli bilimni yaratishga imkoniyat beruvchi haqiqiy qonuniyat;
- faqatgina ma’lum shart-sharoitlarda haqiqiy bo‘lgan va aniqlik kiritilishini talab qilgan holat;
- xato mulohaza, u qandaydir sabablarga ko‘ra keng tarqalgan.

Filologik bilimning ratsionalligi nafaqat ilmiy yondashuvga, balki sog‘lom tafakkur, fikr yuritish, hayotiy donolikka ham asoslanadi, shuning uchun filologiyani bunday tushunish san’atidir.

O‘z tarkibi bo‘yicha xilma-xil bo‘lgan sintetik filologik bilim XX-XXI asrlarda katta o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Integratsion va differen siatsiyalovchi jarayonlarning o‘zaro ta’siri matnni tushuntirishga qaratilgan keng diapozon (maydon)dagi bilimlarning yagona majmuasi bo‘lgan filologiya fanini alohida oqimlarga parchaladi. Xususan, tilni o‘rganish – tilshunoslik obyekti, matn yaratilayotgan jamiyatning o‘zgarish va rivojlanish jarayonlari tarix obyekti, matnlarning, ayniqsa, badiiy matnlarning mazmuni, tuzilish prinsiplari, tarixi adabiyotshunoslikning o‘rganish obyektiga aylandi.

II.Tadqiqot mavzusini tanlash va mavzu bo‘yicha adabiyotni izlash Dastlabki asoslar

Agarda fan yangi bilimni olish jarayoni sifatida tushunilsa, bu yangi axborotni olishning ikki yo‘li mavjud:

- 1.Boshqa sohibdan;
- 2.Tadqiqot obyektini bevosita o‘rganish jarayonida.

Odatda bu ikki yo‘l ham uzlucksiz bog‘liq. Muammo biz nimadan boshlashimizda. Birinchi yo‘l, mazkur mavzuga bag‘ishlangan ilmiy adabiyot bilan ishslash; ikkinchi yo‘l o‘qitishdagi muloqot, ilmiy anjuman, seminar, simpoziumdagi o‘zaro muloqot bilan bog‘liq. Shuning uchun ilmiy tadqiqiy jarayonning boshlanishi bu ilmiy o‘qishdir, u ilmiy tadqiqiy jarayonning boshlanishi va doimiy unsuri sanaladi.

III.Tadqiqot mavzusini tanlashda yondashuv

Taklif etilgan mavzuni tanlash qanday amalga oshiriladi?

Bunda ikkita imkoniyat mavjud: birinchisi – ilmiy rahbar yoki kafedra taklif etgan mavzulardan birini tanlash, ikkinchisi – mustaqil tarzda o‘z ilmiy qiziqishlaridan kelib chiqqan holda tanlash.

Tanlashning birinchi varianti doirasida sizga taklif etilgan mavzularning nomini quyidagi reja asosida tahlil qilish lozim:

Mavzu nomidagi barcha so‘zlarni atama va atama bo‘lmagan so‘zlarga ajratish;

Darslik, lug‘at, entsiklopediya, ma’lumotnomalar, ilmiy manbalardan foydalangan holda mavzu nomidagi atama bo‘lgan va sizga noma’lum bo‘lgan unsurlarning ma’nosini aniqlash;

Mavzu nomidagi tayanch tushunchalarni bog‘lovchi munosabatlarni aniqlash;

Mavzu nomining tarkibida tayanch, asosiy so‘zlar to

Mavzuning umumiyligi ma’nosini aniqlash.

Masalan: Stilistik bo‘yoqni pasayishi bilan kuzatiladigan nomlanishni ko‘chirish. Bu yerda 5 ta mustaqil so‘zdan tayanch tushunchalarning 3 tarkibiy nomi yasaladi: “nomlanishni ko‘chirish”, “stilistik bo‘yoq”, “stilistik bo‘yoqni pasayishi”. Lingvistik atamalar lug‘ati yoki lingvistik entsiklopedik lug‘atga murojaat etamiz va quyidagi talqin izohlarni topamiz.

1. Nomlanishni ko‘chirish – onomasiologik jarayon, u obyekt uchun “o‘zga” ismni qo‘llash va yasama nomlarni yasalishi bilan bog‘liqdir. Eng ko‘p uchraydigan turlari: metafora, metonimiya, sinekdoxa.

2. Stilistik bo‘yoq – so‘zni tilning funksional stillaridan tegishliligiga ko‘rsatma.
3. Stilistik bo‘yoqning pasayishi – so‘zning stilistik tegishliligini o‘zgarish jarayoni, “yuqoriroq” stilistik darajalardan “quyiroq” darajalariga o‘tish. Masalan, stilistik neytral usuldan og‘zaki usulga o‘tishi, masalan, kanareyka – ko‘k chiziqli sariq rangdagi militsiya avtomobili.

So‘ngra ilmiy adabiyotni o‘qishga o‘tish lozim.

Shunday savol paydo bo‘ladi: agarda mavzu tahlili hamda ilmiy ma’lumot va metodik adabiyotni dastlabki o‘rganish asosida ilmiy tadqiqot jarayonida nima qilishni aniqlash mumkin va kerak bo‘lsa, unda qandaydir maxsus adabiyotni nima maqsadda o‘qish kerak? Quyidagilarni bilish uchun o‘qish lozim:

1. Ko‘chma ma’nolarning mazkur turini qanday va qayerda topish mumkin?
2. Bu turlarni qanday qilib qayd etish lozim?
3. Qo‘ylgan maqsadga erishish uchun tahlilning qanday metodini tanlash lozim?
4. Tahlil uchun tanlangan metodni qanday amalga oshirish lozim?
5. Olingan natijalarni qanday tekshirish mumkin?
6. Ma’no ko‘chishining qanday turlari mavjud?
7. Ko‘chma ma’nolarni stilistik o‘zgarishlarining qanday turlari mavjud?
8. Ko‘chma ma’no va stilistik bo‘yoq o‘rtasida aloqalarning qanday shakllari mavjud.

Buning uchun adabiyotni masala va savollarning keng doirasi bo‘yicha izlash va o‘qish lozim, ya’ni:

- a) tadqiqot predmeti bo‘lgan til faktlarining kerakli turlarini tasviriga tegishli bo‘lgan, mazkur holatda ko‘chma ma’noli so‘zlar, ko‘chirish turlari, tilning stilistik qatlamlari, stilistik o‘zgarishlarning turlari;
- b) o‘rganilayotgan til dalillarini tushunish va talqin qilinishining nazariy bazasini tashkil qiluvchi g‘oya, konseptsiya nazariyalarini tasvirlovchi;
- v) obyekt tahlili metodi va olingan natijalarni tekshirish bilan bog‘liq;

Til materialining manbasi sifatida lug‘atlar xizmat qilganligi sabab, mazkur lug‘atlarning kirish va asosiy bo‘limlarini e’tibor bilan o‘rganish lozim, bu lug‘at tuzilmasi va hajmi haqida aniq tasavvur shakllantiradi va zaruriy til birliklarini olishni maksimal darajagacha ko‘taradi.

Ikkinchi variant doirasida, olim o‘zida mavjud bo‘lgan tadqiqotlar tajribasi va bilimlar zahirasiga tayanadi. Shu bilan birga unga yuqorida so‘z yuritilgan manbalar ham yordam beradi. Bundan tashqari yirik ilmiy tadqiqot markazlar (masalan, fanlar akademiyasi, universitet va h.k.) ning yetakchi mutaxassislari tomonidan yaratilgan alohida ishlar ko‘rinishidagi ilm-fan yutuqlarning alohida tahliliy sharhlari yordam beradi. Odatda, bu ishlar yechilmagan, hal qilinmagan ilmiy muammolarning ro‘yxati va istiqbolli mavzularni ko‘rsatish bilan yakunlanadi.

Mavzuni mustaqil tarzda tanlash ekspeditsiyalarda (masalan, shevashunoslik, folklor) to‘plangan materiallarni umumlashtirish zaruriyati hamda ilk bor topilgan manbalar (masalan, qadimgi qo‘lyozmalar matni)ni ilmiy tasvirlash, ilmiy muomalada bo‘lgan g‘oyani tasdiqlash yoki rad etish zaruriyati bilan belgilanishi mumkin. Tadqiqot mavzusi qanday sabablarga ko‘ra tanlanmasin, u ilmiy adabiyotlarni o‘rganish bilan uzluksiz bog‘liqdir.

IV. Adabiyotni o‘rganish nimadan boshlanadi?

Avvalambor, bu zaruriy nazariy manbalarni izlash va bibliografik kartotekani tuzishdan boshlanadi. Buning uchun tanlangan mavzu ustida fikr yuritish va u mansub bo‘lgan predmet sohasini aniqlash jarayonida asosiy tushuncha va kategoriyalar nomi ajratiladi va qayd etiladi. Bu nomlash tizimi sizning kartotekangizni dastlabki rubrikatsiyasi sifatida xizmat qiladi. Bunga material sifatida bibliografik ro‘yxat va ko‘rsatgichlar olinadi.

Bibliografik ko‘rsatgich ma’lumot nashrining alohida turi bo‘lib, unda manbani izlash uchun zaruriy bo‘lgan ma’lumotlar ko‘rsatiladi: muallifning ismi-sharifi, matnning to‘liq nomi va nashr ma’lumotlari (nashrning joyi, yili, nashriyoti, matndagi betlar soni) ko‘rsatiladi.

Bibliografik ro‘yxatlar – odatda, ilmiy ishlarni (maqola, dissertatsiya, monografiya, ensiklopediya maqolalari, darslik boblari) yakunlovchi ilmiy manbalar ro‘yxatidan iborat bo‘ladi.

Bibliografiyalarni ish uchun zaruriy bo‘lgan ilmiy manbalarni tanlash maqsadida o‘rganish doimo o‘z ichiga topish unsuri va adashish imkoniyatini qamrab oladi. Buning sabablari esa ham subyektiv ham obyektiv bo‘lishi mumkin.

Obyektiv sabablarga quyidagilar kiradi: to‘g‘ri tuzilgan nomda berilayotgan axborotning qisqaligi va noaniqligi.

Masalan, “Turk tilida o‘zlashma va tub so‘zlarda sinonimiya” degan mavzuda faqatgina o‘rganish obyekti bevosita nomlangan, qolgani haqida biz faqatgina o‘zimizcha taxmin qilishimiz mumkin. Bu esa, nomlangan obyekt haqidagi tushunchalar, shakllangan tasavvurlar hamda aynan shu muallifni qiziqtiruvchi muammolar, uning ilmiy qiziqish sohasi qanday ekanligi bilan asoslangan. Shuning uchun inson o‘z sohasida qay darajada savodliroq bo‘lsa, u shu darajada tezroq va aniqroq bibliografiyadan o‘ziga zarur bo‘lgan manbani topadi.

Bibliografiya bilan ishslashdagi qiyinchiliklar subyektiv xarakterlarga ham ega bo‘ladi.

Masalan, endi ilm-fanga qadam qo‘ygan tadqiqotchi o‘ziga zarur bo‘lgan ishni nomi bo‘yicha bilolmasligi ham mumkin. Aytaylik, uning mavzusi “Turk tilidagi harakat fe’llarinинг leksik-semantik guruhdagi metoforik ma’nolar turlari” deb nomlanadi. Unga esa, bibliografik ro‘yxatda “Turk tilida yasama ma’nolarni yasalish uslublari” deb nomlangan mavzu uchraydi. Yosh olim bu asarni o‘z bibliografiyasiga kiritmaydi. Chunki, uning fikricha mavzuning nomida uning ishiga tegishli bo‘lgan umumiyoq so‘z va so‘z birikmalari mavjud emas. Shu tariqa u xatoga yo‘l qo‘yadi. Chunki, metoforik ma’no – yasama ma’nolarning tez-tez uchrab turgan turlaridan biri.

Demak, metoforik ma’nolar turini tahlil qilishdan oldin mazkur ma’noni qanday hosil qilinganligi, bu tilda metoforik ma’nolarning qanday turlari mavjudligi, ular so‘z turkumlari o‘rtasida qanday taqsimlanishi va bunda qanday farqlar kuzatilishini aniqlash lozim. Agarda mazkur vaziyatda tanlangan ishlarning ro‘yxati bibliografik manbalarning katta sonini o‘rganib chiqqanda ham juda ham kichik va qisqa bo‘lsa, bunda xatolarning boshqa turi kuzatiladi – mavzuni nomi bilan umumiyoq unsurga ega bo‘lgan ishlarni kiritish. Bu ro‘yxatni haddan ziyod kengayishiga olib keladi. Bu xatolar tadqiqotching lingvistik kompetensiyasini doimiy kengayishi hisobiga hamda nomlarning tur modellarini bilish asosida mavzuning taxmin etilayotgan mazmuni bilan nomni qiyoslashning amaliy ko‘nikmalarini ishlab chiqish yo‘li bilan bartaraf etiladi. Bundan tashqari, ishning nomi haqida tasavvur shakllantiradigan maxsus

nashrlar, ularning mazmuni haqida ma'lumot beradigan manbalar ham mavjud. Ular qatoriga birinchi navbatda, referativ jurnallar kiradi. Ularda olinishi qiyin bo'lgan ma'lumotlar o'z aksini topadi. Manba mazmuni haqida qaydlar, bundan tashqari signal axborot (axborot markazlar tomonidan chop etilayotgan eng dolzarb materiallarning tasvirini beruvchi nashrlar) deb nomlanuvchi, u yoki bu nashriyot tomonidan kitoblarga tayyorlanadigan reklama annotatsiyalari, nashriyotlarning kelajak rejali ham ma'lumot beradi.

Har bir manbaning to'liq bibliografik tasviri berilgan bibliografik kartochka tuziladi. Uning faqatgina bir tomoni to'ldiriladi, boshqa tarafi qaydlar uchun bo'sh qoldiriladi. Kartochkalar shaxsiy ishchi kartotekani tashkil qiladi. U ish uchun har qanday qulay prinsip asosida tuziladi: mavzular bo'yicha, alifbo tartibi, o'qish muddatiga ko'ra, muhimligi darajasi va nashr turlariga ko'ra (monografiya, maqolalar to'plami, jurnal, risola va h.k.).

3-ma'ruza **Ma'lumotlarni tahlil qilish usullari**

Darsning o'quv maqsadi: Ilmiy o'qish shakllari, Antipatsiya tushunchasi, o'qilgan materialning mavuzusini qayd etish uslublari, talqin qilish yo'llari haqida tushuncha berish.


Reja:

1. Lingvistik tahlil
2. Diskurs tahlil
3. Sosiolingvistik tahlil
4. Kontentni va kontekstni tahlil qilish

Tayanch so'z va iboralar: Kontent , kontekst, ilmiy o'qish, ko'rib o'qish, tanishib o'qish, o'rganib o'qish, reja, konspekt, ko'chirma, referat, obzor, qoralama matn.

I. Lingvistik tahlil shakllari

Ilmiy – lingvistik tahlilning quyidagi turlarini farqlash kerak:



Manba bilan tanishish odatda, ko'rib o'qishdan boshlanadi. Bu hali ilmiy matnni o'rganish emas, bunda mundarija, predmet ko'rsatgichi, annotatsiya, kirish va xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati o'rganib chiqiladi. Bunday o'qishdan maqsad muallifning umumiy nuqtai nazari va u ko'tarib chiqqan muammo, ishning tuzilmasi, o'rganilayotgan muammolar doirasi, eng ahamiyatli tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lishdir.

Ilmiy matnni batafsil tadqiq etish, o'rganish uni o'qishdan boshlanadi. Maqsad o'qilgan matn haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish: unda mavjud bo'lган axborot turlari haqida, ularning o'rganilayotgan mavzuga tegishlilik darajasi, bayon etishning xarakteri va uslublari, bo'lim va boblarni tashkil qilish tamoyillari kabi chuqr unsurlari haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish hamda manba bilan keyingi ish olib borishning strategiya va taktikasini aniqlab olishdir.

Ko'rib o'qish jarayonida muallifning maqsad va vazifalari anglab olinadi. Unga xos fikr yuritish uslublarining va materialni yetkazib berilishining o'ziga xosligi aniqlanadi; mazkur tadqiqotning xususiyatlari haqida birlamchi tasavvur shakllantiriladi; o'qilayotgan matnning idrok etish uchun qiyin bo'lган, anglash va qayta ishlovni talab qilgan lavhalari ajratib ko'rsatiladi. Tanishib o'qishda o'zga axborotni o'quvchi ehtiyojlariga mosligi doimiy tarzda o'rganiladi, tadqiq etilayotgan mavzu nuqtai nazaridan ahamiyatli va qiziqarli bo'lган bo'laklar ajratiladi, ular nafaqat tushunish, balki keyingi ish olib borish uchun qayd etilib, muallif va o'quvchi nuqtai nazarlaridan yaqinlik darajasi baholanadi.

Tanishib o'qish jarayonida matnda qaydlar qilinishi mumkin, ularga tayangan holda o'quvchi o'qishning keyingi bosqichiga o'tadi, biroq bunday qaydlarni qilganda kitob o'quvchining o'ziga tegishli bo'lган holda ham, belgilarni qo'yganda matnga xalaqit bermasligi va uni bemalol o'qish imkoniyatini saqlab qolish haqida o'ylash lozim. Agarda kitob boshqa odamga tegishli bo'lsa yoki kutubxona mulki bo'lsa matnda hech qanday qaydlar qilish mumkin emas. Bu holatda alohida qog'ozda belgilar qilib, uni kitobning taalluqli o'sha varag'iga qo'yish lozim. Bunda asosiy matnga tegmagan holda tadqiqot uchun zarur bo'lган barcha qaydlarni qilish mumkin.

O'rganib o'qish o'rganilayotgan asarning mantiqiy aloqalarini to'liq anglash, muallif nuqtai nazarini tushunish va bu nuqtai nazar tasvirlanayotgan narsaga nisbatan ilm-fanda mavjud bo'lган qarashlarga qanday aloqadorligini tushunish, axborotni nafaqat bevosita shakllantirilgan holatlardan, balki turli bilvosita va matn osti tuzilmalardan, ya'ni argumentatsiya qilish uslublari, tushuntirish va isbotlash uslublari, iqtibos, nazariy holat va ko'rgazmali til materiali o'rtasidagi aloqalar xarakteri xulosalarning chuqurligi va asoslanganligi kabi tuzilmalardan axborotni olish mahorati nazarda tutiladi. O'rganib o'qishda o'quvchi o'zining tushunishi va anglashini muntazam ravishda tekshiradi. Matnni rivojlanishi o'rganilayotgan ishning butun hajmida kuzatilgan jabha, mavzularga bo'lish ilmiy manbani o'zlashtirishga yaxshi yordam beradi.

Ansipatsiya haqida tushuncha. Ilmiy matn bilan ishlaganda tadqiqotchi o'zida ansipatsiyaga bo'lган qobiliyatini rivojlantirishi lozim. Ansipatsiya matnning

davomini oldindan ko‘ra bilish mahoratidir. Ansipatsiyani rivojlantirishga yordam beruvchi sodda va mahsuldor uslullar:

1. Iboradan alohida unsurlarni “o‘chirib tashlash” va olingan ma’nodagi o‘zgarishlarning xarakterini aniqlash;

2. Ibora tarkibida o‘tkazib yuborilgan unsurlarni tiklash.

Mutolaa qilingan materialning mazmunini qayd etish uslullari

Bular qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Ko‘chirmalarni tuzish – ya’ni, o‘rganilayotgan mavzu nuqtai nazaridan qiziqarli bo‘lgan matn lavhalarini yozib olish. Bunda har bir lavha, har bir holat odatda alohida kartochkada qayd etiladi, bu mazkur qaydlardan alohida holatda, yoki boshqa qaydlar bilan uyg‘unlikda va sizga kerakli tartibda qo‘llash imkoniyatini beradi.

2. Tezislар tuzish – bu o‘rganilayotgan manbaning asosiy holatlarining qisqa bayonidir.

3. Konspektlar tuzish – o‘rganilayotgan manbani qisqa, izchil bayoni bo‘lib, asarning mantig‘i va aloqadorligini saqlab qoladi. Bu jiddiy, aqliy vazifa bo‘lib, uning yechilishi chuqurlashtirilgan o‘qishga yordam beradi. Uning idrok qilish natijalari obyektiv qayd etish imkoniyatini yaratadi. Konspekt yozishda reja tuzish unsurlari, tezis va ko‘chirmalardan foydalaniladi, bularning mutanosibligi konspekt turiga bog‘liq sanaladi.

Konspektlarning quyidagi turlarini farqlash lozim:

Rejali konspekt matn va rejaning o‘ziga xos uyg‘unligidir. Bunda manba rejasi yoxud batafsil tasavvurni talab qilgan, yoxud batafsil tushuntirishni talab qilgan alohida punktlar bo‘yicha batafsil yozuvlar bilan kengaytiriladi.

Matnli yoki iqtibosli konspekt manbani undan olingan iqtiboslarning kengaytirilgan qatorini izchil bayon etish yo‘li bilan tuziladi.

Erkin konspekt – manbaning mazmunini to‘liq aks etib, qayd etishning barcha uslublari bilan yaratiladi. Unda “o‘z” so‘zi bilan hikoya qilish, iqtiboslar, ko‘chirmalar va tezislар mavjud.

Mavzuli konspekt – manba mazmunini to‘liq hajmda emas, balki ma’lum mavzuning nuqtai nazaridan aks ettiradi. O‘znavbatida mavzuli konspektlar ikki turga bo‘linadi. Bular xronologik va shartli konspektlar

Yuqorida bayon etilganlarning barchasi o‘rganib o‘qish jarayonida matnning kompressiya va qayd etish bilan u yoki bu darajada bog‘liqdir, bu esa ilmiy manbani to‘g‘ri talqin qilish imkoniyatini beradi.

II. Diskurs tahlil qilish. Bu ilmiy o‘qishning asosiy va majburiy unsurlaridan biridir. Bu o‘ziga o‘zi o‘qilyotgan matnni tushuntirish, mazkur matnni talqin qilib o‘z mavzusiga “to‘g‘rilash”dir. O‘qilganni qayd etish uslublari talqin qilish jarayonini ongli va yaqqol qiladi. U muallif nuqtai nazarining kuchli va kuchsiz taraflarini ko‘rsatib, isbot, dalil va xulosalarning ziddiyatli emasligi va ishonchliligi darajasini, amalga oshirilgan til materiali tahlilining ishonchliligi, qarashlar tizimining bahsliligi darajasini baholash imkoniyatini beradi.

O‘rganib o‘qishdan keyin tahliliy-tanqidiy bosqich boshlanadi – bunda o‘rganilayotgan obyektga o‘z nuqtai nazarini ifodalash nazarda tutiladi, ya’ni ilmiy adabiyotda qanday jabhalar o‘rganilmaganligi yoki to‘liqsiz o‘rganilganligi, qanday vazifalar yechim talab qilishi va bu yechimlar qanday konsepsiyalarda bo‘lishi lozimligi nazarda tutiladi.

Bularni quyidagi diskurs tahlil uslublari yordamida amalga oshirish mumkin:

- mazkur tadqiqot sizning mavzuingizga qanday aloqadorligini aniqlash;
- tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiy manbalar tahlilining umumiy asoslarini ajratish: mavzu shakllantirilayotgan tayanch tushunchalar;
- turli mualliflar asarlari bo‘yicha qo‘shma jadvallarni tuzish va bu jadval yordamida mazkur hodisaga nuqtai nazarlarni taqqoslash;
- turli mualliflar tomonidan mazkur mavzu uchun muhim bo‘lgan bir xil kategoriya va tushunchalarga berilgan tavsiflarning qiyosiy tahlili va tasnifi, tasviriy tasnif matnlarini tuzish;
- referat yoki sharhlarni tuzish (bir yoki bir necha manbalar bilan og‘zaki yoki yozma).

Referat va sharh – bu ishlangan manbalarni qanday tushunganingizni aksi, ular ongda qanday joylashganligidir:

- o‘zga g‘oyalarni talqin qilish va materialni bayon etish prinsiplari sizga tegishliligi;
- siz ishlab chiqilgan manbalarni baholashingiz lozim, o‘qilganni umumlashtirib muallif nima qilganini, siz esa nima qilishingiz kerakligini aniqlashingiz lozim;
- xulosa bo‘limida siz aniqlagan keyingi tadqiqotlarning imkoniyat va yo‘nalishlarini belgilash.

Bularning barchasidan so‘ng qoralama matn (esse) tuzishni boshlash mumkin bo‘ladi. Bu matn siz o‘rganib chiqqan ilmiy manbadan olingan biron bir holatni rivojlantirib beradi. Shu tarzda ilmiy tadqiqot ishning tayyorlov bosqichi yakunlanadi. Keyin asosiy bosqich – til materialini to‘plash, tahlil qilish va tasvirlashdan boshlanadi. Bularning maqsadi fan uchun yangi bo‘lgan bilimni olish.

III. Sosiolingistik tahlil doirasida tadqiqot uslubini tanlash, ilmiy ishning eksperimental bazasini yaratish va uslub haqida tushuncha berish lozim.

Bir nechta turdosh fanlar doirasida qo‘llaniladigan xususiy maxsus uslublar hamda barcha fanlarda qo‘llaniladigan umumiy falsafiy uslublar farqlanadi.

Ilmshunoslikda umumiy uslublar (analiz, sintez, qiyoslash va h.k.), umumilmiy uslublar (kuzatuv, o‘lchash, eksperiment va h.k.) va xususiy uslublar (komparativ, tuzilmaviy va h.k.) farqlanadi. Aniq tadqiqiy vazifalarni yechishga qaratilgan bu uslubiy variantlar metodika deb nomланади.

Tasviriy metod tilshunoslikda boshqa gumanitar fanlarda bo‘lgani kabi uzoq davr hukmronlik surgan, hozirgacha muhim o‘ringa ega bo‘lgan metoddir. Uning mohiyati kuzatilayotgan hodisani nomi bo‘yicha nomlab, uni u yoki bu belgilar asosida oldindan aniqlangan, tavsiflangan sinfga mansub deb topish yoki tasnif va tavsiflarning yangi tizimini ishlab chiqib mazkur tizimga muvofiq obyektning tasvirini berishdir.

Hozirgi paytda tilshunoslik turli uslublarning katta hajmiga hamda tilshunoslikning negizida yaratilgan “o‘z” uslublariga ega. Bular qatoriga komponent va distrebutiv tahlil uslublari ham kiradi. Va yana boshqa fanlar negizida vujudga kelgan “o‘zga”, ammo tilshunoslikda muvaffaqiyat bilan qo‘llaniladigan uslublar ham kiradi. Bular oppozitiv, statik, mantiqiy-matematik. Bundan tashqari azaldan fanda qo‘llaniladigan umumiy ilmiy uslublar ham tilshunoslikda ishlatiladi: eksperimental, modellashtirish va boshqa uslublar.

Tadqiqot uslubini tanlash – til materiallarini tanlashdan keyingi bosqich. Ilmiy adabiyot, jumladan metodologik adabiyotga ishlov berib, til materialini to‘plab qayd etgandan so‘ng tilshunos o‘z tahliliga kirishadi, buning uchun u materialni tahlil qilish uslubini tanlashi lozim.

Uslubni tanlash va qo‘llashning asosiy qoidasi – uslub doimo obyektga mutanosib bo‘lishi lozim.

Bu har bir obyekt har bir uslubga to‘g‘ri kelmasligi, mutanosib bo‘lmasligini anglatadi, har bir obyekt o‘z uslubini talab qiladi, mazkur uslub uning xususiyatlarini to‘liq va aniq ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Uslub va obyektning mutanosibligi, uslub qo‘llashning optimalligi nafaqat uslubning o‘ziga xosligi va obyektning xususiyligi bilan, balki boshqa omillar, ya’ni tadqiqotchi o‘z oldiga qo‘yan vazifalari, obyektning o‘rganilganlik darajasi, uni kuzatuv uchun osonligi kabi omillar bilan shartlanadi. Fonetikada inson nutqidagi tovushlarning balandligi, qisqaligi, uzunligi, intensivligini o‘rganish va hattoki kuzatishni maxsus instrumentlarsiz amalga oshirish mumkin emas, semantikani o‘rganish esa deyarli bir yarim asr apparat vositalarini qo‘llash uchun imkoniyat bermagan va faqatgina XX asrning 2-yarmida mazmun bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi bir sohalarda EHMni qo‘llash imkoniyati yaratildi, biroq bu kuzatuvlar uchun emas, balki ko‘proq olingan natijalarni saqlash va tartibga solish uchun zarur bo‘ldi.

Uslubni to‘g‘ri tanlash va uni to‘g‘ri qo‘llash – ishonchli va istiqbolli natijalarni olish garovidir. Metodologik xatolar, ya’ni uslubni noto‘g‘ri tanlash yoki qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan xatolar eng jiddiy, uzoq muddatli va xavfli, ilmiy noaniqliklarga olib keladi.

IV. Kontentni va kontekstni tahlil qilishda til materiali manbalari birlamchi hisoblanadi. Ish biron bir til hodisisi kuzatuvlari va til materialini to‘plashdan boshlanadi. Til insonga bevosita kuzatuvda berilmaganligi sabab lingvist til materiali deb nomlangan hodisa bilan ishlaydi, til materiali til taqdim etgan maxsus obyektdir. Til materialining 3 ta turi mavjud, ularga murojaat qilgan holda tadqiqotchi tilning turli jahbalarini o‘rganadi. Bular: jonli nutq, yozma matnlar, lug‘at.

Tilshunos qanday vazifani hal qilishiga qarab, tadqiqotda o‘z oldiga qo‘yan vazifalariga ko‘ra, u mazkur manbalardan biriga yoki birdaniga bir nechtasiga murojaat etadi. Masalan, og‘zaki nutqda urg‘uni variantlari o‘rganilganda, gapirayotganning ijtimoiy maqomi, ya’ni jamiyatdagi o‘rniga bog‘liq o‘rganiladi. Tabiiyki, til materialining asosiy manbasi sifatida jonli og‘zaki nutq xizmat qiladi. Biroq qo‘shimcha manba sifatida me’yorga muvofiq bo‘lgan urg‘uni aks etuvchi turli lug‘atlar ham ishlatiladi. Masalan, izohli lug‘at. Unda so‘z boshlang‘ich shaklda, albatta, urg‘usi bilan beriladi. Adabiy tilning me’yorlari, variantlari va so‘z qo‘llanish qiyinchiliklarini tasvirlab beruvchi ma’lumot lug‘ati ham mavjud. Radio va televiedenie xodimlari uchun yaratilgan urg‘u lug‘ati ham mavjud. Unda urg‘u nuqtai nazaridan har xil talaffuz qilinadigan so‘z va so‘z shakllari yig‘ilgan bo‘lib, adabiy me’yor talablariga javob beradigan, shu bilan birga og‘zaki nutq ta’sirida bo‘lgan talaffuz variantlarida so‘zlar taqdim etilgan. Bunda savol paydo bo‘ladi: o‘rganish obyekti og‘zaki jonli nutqdagi urg‘uning variantlari bo‘lsa, lug‘atlarga nima uchun murojaat qilamiz? Me’yoriy lug‘atda adabiy me’yor aks etadi. Lug‘atlarga majburiy murojaat etishning sabablarining eng asosiysi variantlar xarakterini aniqlash uchun norma haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishdir.

Bundan tashqari og‘zaki nutqda nafaqat og‘zaki, balki adabiy, kitobiy variantlar mavjud. Ikkinchisabab me’yoriy lug‘atlarda ba’zi bir hollarda qarshi misol, ya’ni noto‘g‘ri taqiqlangan qo‘llashning misoli tariqasida adabiy me’yor nuqtai nazaridan taqiqlangan, biroq jonli nutqda tez-tez uchrab turadigan variantlar uchraydi. Ya’ni lug‘atda tadqiq etishning bevosita obyekti bo‘lgan og‘zaki variantlar lug‘atda taqdim etiladi. Bunday misollarning qiymati tadqiqot to‘plagan materiallarda mazkur variant qayd etilgan holda juda ham oshadi, chunki tadqiqotchi o‘z dalil isbotiga ega bo‘ladi va tadqiqotchi biron bir sabablarga ko‘ra, muvofiq variantni qayd etmasa, u bunday holatda qayd etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Lug‘at aksariyat hollarda til dalillari haqidagi nafaqat axborot manbasi sifatida, balki til dalillarining dastlabki tartibga solingan ulkan massivlarining saqlovchisi sifatida ham keng qo‘llaniladi. Aynan shuning uchun u til materialining nafaqat qo‘sishimcha, balki asosiy manbasi ham bo‘lishi mumkin.

Masalan, harakat va makondagi holat fe’llari materialida leksik, semantik guruh tuzilmasi o‘rganilyapti. Bu materialni, ya’ni harakat va makondagi holat fe’llarni mavjud bo‘lgan zamonaviy izohli lug‘atlardan to‘liq tanlash yo‘li bilan to‘plashadi, soddaroq qilib aytganda, lug‘atlarining yuzlab betlari o‘rganib chiqilib, ulardan to‘g‘ri yoki ko‘chirma ma’noda “harakat” va “holatdagi holat” semasiga ega bo‘lgan barcha fe’llar yozib olinadi.

Adabiy tilda me’yor bu – to‘g‘ri deb tan olingan yagona variant bo‘lmasligi ham mumkin, qo‘llashning turli sharoitlariga muvofiq bo‘lgan bir nechta variant ham bo‘lishi mumkin.

Til materialining manbasi sifatida matn ham xizmat qila oladi. Tilshunos matn bilan ikki jahbada ishlay oladi. U matnga kuzatuvning bevosita predmeti sifatida xizmat qiluvchi hodisalar manbasi tarzida qarashi mumkin. Masalan, deyktiv (olmosh), so‘zlar rivojlantirishga qobiliyatli bo‘lgan ko‘chma ma’nolar turlari o‘rganiladi. Vazifa bunday qo‘yilganida tadqiqotchi lug‘atlarda qayd etilgan olmoshlarning ko‘chma ma’nolarini aniqlashi va kuzatishi, deyksislarda turli, avvalambor, badiiy matnlarda vujudga keluvchi ko‘chirma qo‘llanilishini va nihoyat jonli og‘zaki nutqdagi deyksislarning bilvosita ko‘chirma qo‘llanilishini o‘rganishi lozim. Biroq matn o‘rganishning nafaqat manbasi, balki mustaqil obyekti ham bo‘lishi mumkin. Bu o‘rinda gap tadqiqotlar predmeti aynan matn, uning mavzu, leksik, semantik va stilistik tashkillashtirilishi bo‘lgan holatlar haqida ketadi.

Til materiali bilan ishslashda tadqiqotning manba va obyektlari qanday bo‘lishiga qaramasdan, obyektni ajratib olish jarayonlari, uning kuzatuvi va kuzatuv natijalarini qayd etish parallel tarzda amalga oshiriladi. Masalan, o‘z oldiga olmoshlarning ko‘chirma ma’nosi turlarini kuzatish vazifasini qo‘yganda, ularni lug‘at, matn, jonli nutqda topib, ko‘chirma yoki to‘g‘ri ma’noda qo‘llanilganini, agarda ko‘chirma ma’noda qo‘llanilgan bo‘lsa, ko‘chirishning qaysi turi ishlatilganini aniqlash lozim. Shunday qilib, kuzatuv, ajratish va tahlil bir paytning o‘zida bo‘ladi. Albatta, tahlil uchun bu birinchi bosqich, u o‘z navbatida materialni tahliliy o‘rganish jarayonida izchil davom ettiriladi.

Kuzatuv natijalarini qayd etish

Kuzatuv natijalari qayd etilishi lozim. Qayd etishning quyidagi vositalari bo‘lishi mumkin



Kartoteka



Katalog

Bugungi kunda kartoteka – tilshunosning individual ishidagi til materialini qayd etish va saqlashning eng keng tarqalgan uslubidir. Kartoteka uni tashkil qiluvchi til dalillari (alohida so‘z, LSV, so‘z shakllari, so‘z birikmalari, turli tovush izchilligi, gaplar, matn qismlari, barqaror iboralar, so‘z qatorlari va guruhlari) aks ettirilgan va oson birlashishi, ajratilishi, yangi axborotni hamda yangi misollarni qo‘sish (yangi kartochkalarni qo‘sish), mavjud bo‘lgan kartochkalarning bo‘s sh tomonini to‘ldirish, hamda turli qo‘sishimcha varaqlar qo‘sish imkoniyati berishi bilan qulay sanaladi. Bunda tashkillashtirishning shakllangan tizimi buzilmaydi. Qayd etishning kartoteka uslubining kamchiliklari uning kattaligi, tez eskirishi va natijada kartochka yaxlitligi buzilib yozuvlarning o‘chishidir.

O‘rganish obyektini ajratib olish o‘z ichiga tahlilni ma’lum darajada kiritilganligi va muallifning nazariy tasavvurlariga asoslanganligi tufayli olim ishning tahliliy qismini boshlaganida albatta, jiddiy, nazariy bilimlarga ega bo‘lishi lozim, imkon qadar o‘z ilmiy qiziqishlari sohasi haqida to‘liq tasavvurlarga ega bo‘lishi kerak. Aynan shu ilmiy o‘qish, hamkasblar bilan jonli muloqot bilan ta’minlanadi. Shu bilan birga, bitta sohibdan boshqa sohibga nisbatan oson ifodalanib yetkazib beriladigan bilimdan tashqari fan bilan mashg‘ul bo‘lgan inson, bilimning xususiy shakliga ega bo‘lishi lozim.

O‘qilgan va eshitilganga ishlov berib anglash umuman fanda bo‘lgan bilimni xususiyga aylantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu xususiy bilim olimning shaxsiy mulki hisoblanishi bilan birga umuman olganda ilm-fanni boyitadi. Bu transformatsiya ilmiy tadqiqot ishining muhim jabhalaridan biridir.U tadqiqotchining ruhiy va intelektual xarakterining o‘ziga xosligi, olgan ma’lumotining darajasi, xususiyatlari hamda uning axloqiy prinsip va kasbiy kompetensiyasining darajasi bilan ta’minlanadi.

Xususiy bilimni aniqlash

Tahlilning aniq texnologiyalari va uslublarini qo‘llash sohasida xususiy bilimni shakllantirish juda muhim. Tahlilning qay darajada batafsil va ishonchli tavsiflanishidan, qay darajada tushunarli,mahorat bilan bayon etilishidan qatiy nazar, ilmiy tahlil avvalambor, ko‘nikma, ilmiy chaqqonlik, mahoratni talab qiladi. Ular ilmiy ishda amaliy ishtirot bilangina shakllanadi. Bunday amaliy ishtirot maxfiy ifodalanmaydigan bilimni shakllantiradi, u bilimning eksplestit shakllarini idrok etish va o‘zlashtirish uchun fond bo‘ladi. Implisit bilimning mavjudligi bilimdon, ekspertlarning mavjudligi bilan tasdiqlanadi. Bu odamlar darslik, ma’lumotnoma, yo‘riqnoma, maqola, monografiya va h.k.larda qayd etilgan eksplestit bilimlardan tashqari hech kim bilmagandek va qila olmagandek biladilar va qila oladilar. Bu bilim ham boshqaga berilishi mumkin, lekin bevosita namunaga rioya qilish natijasida va bevosita qo‘shma ilmiy faoliyatdagi shaxsiy kontakt asosida vujudga keladi. Shuning uchun ham ilm-fanda ilmiy məktəb shu darajada yuqori baholanadi.

Ilmiy maktab so‘z birikmasi ikkita uzviy ma’noga ega. Birinchi ma’nosи ilmiy yo‘nalish; ikkinchi ma’nosи bir qator tadqiqotchilar (ba’zida esa tadqiqotchilarning bir nechta avlodi)ning norasmiy birlashmasi, ular ma’lum ilmiy yo‘nalishni yaratib rivojlantiradilar. Ilmiy maktab odatda original va mahsuldor g‘oyalarni to‘plashga qobiliyatli yetakchi atrofida shakllanadi.

Biroq ilmiy maktabning yetakchisiga mashhur ko‘zga ko‘ringan olim bo‘lish yetarli emas. U ajoyib pedagog, tashkilotchi, o‘z hamkasaba va shogirdlarining tadqiqot faoliyatini birlashtirish va yo‘naltirish, ilmiy dasturlar strategiya va taktikasini ishlab chiqarish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Aynan ilmiy maktab doirasida shogird va ustozning hamkorona ilmiy faoliyati amalga oshiriladi. Bu jarayonda shogird nafaqat eksplisit, balki implisit bilimga ham ega bo‘ladi. U nafaqat o‘qiydi, balki hozirgi paytda yaratilayotgan ilm-fan, jonli bilim muhitida ishtiroy etadi.

Tadqiqotchini ma’lum maktabga mansubligi odatda bu tadqiqotchiga fanning eng qiyin sohasi bo‘lgan ilmiy tahlil uslublariga ega bo‘lish borasida, kengroq aytganda esa, ilmiy tafakkur metodologiyasiga ega bo‘lishda tez va muvaffaqiyatli komillikka erishadi.

Eksperiment va tadqiqotning eksperimental bazasi

Eksperiment – olg‘a surilgan taxminlarning haqiqiyigini, maqsadga yo‘naltirilganligini tekshirish yoki obyektiv jahonning qonunlarini aniqlash. Eksperiment jarayonida tadqiqotchi o‘rganilayotgan hodisaga aralashib, uning “tabiiy” oqimini o‘zgartiradi. Tajribaning bir shartini yo‘q qilib, boshqalarini istisno qiladi, uchinchisini kuchaytiradi yoki kuchsizlashtiradi. Eksperimentning bunday imkoniyatlarida uning kuzatuvdan afzalligi namoyon bo‘ladi. Chunki u hodisani “sof” ko‘rinishda o‘rganish imkoniyatini beradi. Bunda qo‘sishma omillar olib tashlanadi. Eksperimentning natijalari birinchi tadqiqotchidan mustaqil tarzda boshqa tadqiqotchi tomonidan olinsa, ishonchli hisoblanadi. Eksperimental baza ham individual labaratoriya chegarasidan chiqib ketgan. Eksperiment miqyosi va u asoslangan nazariy bilim darajasi hamda berishi lozim bo‘lgan natijasi zamonaviy laboratoriya, poligon, tajriba uchastkalari aslida yaxlit o‘ta murakkab ishlab chiqarish jarayoni hisoblanadi. Eksperimentlarda eng yangi texnika, asbob-uskunalar ishlataladi va ularga yuqori malakali personal xizmat qiladi.

4-ma’ruza Tahlil etish natijasida ma’lumot tayyorlash

Darsning o‘quv maqsadi: Ilm-fanda yangilik, ilm-fan va tanqid, ilmiy bahs; ilm-fan va ijod; ilmiy-tahlil natijalarini dastlabki umumlashtirish, maqola, kitob va dissertasiya shaklida tahliliy materiallar yozish kabi masalalar borasida bilim berish.

Reja:

1. Ilm-fanda yangilik
2. ilmiy-tahlil natijalari
3. maqola, kitob va dissertasiya

Tayanch so‘z va iboralar: maqola, kitob, soxta fan, soxta olim, til dalili, ilmiy yo‘nalish, ilmiy dalil, ishchi gepoteza, ixtiro, kashfiyat, natijalarni umumlashtirish, konsepsiya.

I.Ilm-fanda yangilik, ilm-fan va tanqid, ilmiy bahs.

Ilm-fanning maqsadi va mazmunini tashkil qilgan yangilikni izlash hech qachon bir ma’noda natijaviy bo‘lman. Haqiqatga yaqinlashuv doimo xato va adashishlar bilan kuzatilgan va kuzatiladi. Chunki, har bir alohida shaxsning xattoki, daho bo‘lgan shaxsning ham idrok etish imkoniyatlari va har bir davrning ilm-fanga qo‘shtan ulushi naqadar katta bo‘lishiga qaramay, doimo cheklangan.

Xato, adashishlarni anglab tadqiqotchi ularni bartaraf etish yo‘lini izlagan. Ixtiyoriy adashish, anglashilmovchiliklar ilm-fanda doimo mavjud bo‘lgan.

Bu soxta fan – haqiqiy fanning “qiysi tosh oynasidir”. Uning mavjud bo‘lishi va tarqalishining asosi aksariyat hollarda biron bir konyukturaga ko‘ra ongli tarzda haqiqatdan uzoqlashish, yoki olimning layoqatsizligi tufayli vujudga keladi. Tilshunoslik fani rivojining turli bosqichlarida siyosiy konyukturaga javoban vujudga kelgan nazariyalardan quyidagilarni misol keltirish mumkin: tillarni yuqori tashkillashtirilgan va primitiv tillarga bo‘lish nazariyasi, tilni leksikografik tasviri jarayonida “salkam” xalq tili nazariyasi, til o‘rganishning tuzilmaviy uslublarini g‘oyaviy jihatdan noto‘g‘riliqi haqidagi nazariya va h.k.lar. Yangini izlash doimo xatolar bilan kuzatiladi va ulardan saqlanishning yagona yo‘li bu tadqiqotchini tanqidiy o‘z-o‘zini baholashi bilan bog‘liq. Soxta olim bunday qobiliyatga ega emas. U o‘z mulohazalarida qat’iy darajada qat’iyatli bo‘lib va bir ma’noda fikr yuritadi. O‘zga qarash va o‘zga yondashuvlarni mazkur qarash va yondashuvlar asoslangan holda ham qabul qilmaydi. O‘zga uslublar ijobjiy natija berganda ham ularni rad etadi. U o‘z xatolarini ko‘ra olmaydi, aksariyat hollarda esa ko‘rishni xohlamaydi. Bu borada ingлиз faylasuflaridan biri shunday yozgan: “Biz uchun biron bir fikrning haqiqiyligini isbotlovchi hech qanday mutloq dalil yo‘q. Xatolik isbotlanmasada, bu kabi dalil fikrning xatoligini isbotlashda to‘la erkinlik beradi. Agarda tanqid qabul qilinmasa yoki qabul qilinsada, tanqid kuchsizlik qilsa, bu biz haqiqatga egamiz degani emas, biz hali ham haqiqatdan juda uzoqda bo‘lishimsiz mumkin, ammo biz hech bo‘lmasada, haqiqatga erishish uchun barcha choralarни ko‘rganimizni, inson idrok etishining hozirgi holatida qila olish mumkin bo‘lgan barcha ishni qilganimizni (hech bo‘lmasa, bizga haqiqatni yoritib beruvchi barcha choralarни qo‘llaganimizni) anglaymiz.

Agarda tanqid uchun maydon ochiq qolsa, biz fikrlarimizda mavjud bo‘lgan xatolar inson idroki va tafakkuri bu xatolarni ochib berishga layoqatli bo‘lganida ochiladi, degan umidda bo‘lamiz. Hozircha esa, biz uchun imkoniyatlari darajada haqiqatga yaqinlashdik deb o‘ylash uchun asosga egamiz.

Shunday qilib, yangi bilimni olish muammosi doimo fikr, mulohazalarning to‘qnashuvi va kurashi, bahslari bilan bog‘liq. Bu borada tadqiqotchining vazifasi nafaqat yangilikni kashf etish, balki uni ilmiy almashinuviga kiritishdir. Tadqiqotchi nafaqat yangini taqdim etishi, balki o‘z nuqtai nazarini isbotlashi yoki asoslab berishi lozim. Bu yerda ilmiy idrok etishning yana bir paradoksini qayd etish lozim: olim kashf etgan yangi dalil, g‘oya, qonun qanchalik yangi bo‘lsa, ularni ilmiy almashinuviga kiritish shunchalik murakkab bo‘ladi. Ma’lum bilimga ega bo‘lgan inson, bu bilim yetarli va ishonchli bo‘lmasada, mazkur bilimni rad etishga qiynaladi,

yangisi naqadar yorqinroq bo‘lsa, u ma’lum bo‘lganidan naqadar kuchli farqlansa, shu qadar kashfiyotchi uni shakllangan ilmiy til vositalari bilan talqin qilishi murakkabdir. U mavjud bo‘lgan tilni yoki ahamiyatli darajada yangilashi, yoki umuman yangisini yaratishga majbur. Bu esa o‘z navbatida, an’anaviy bilim sohiblarining ochiqdan-ochiq yangi bilimni qabul qilmasligiga olib kelishi mumkin. Buning barchasi ilm-fanda yangilik vujudga kelganida har safar o‘ziga xos inqirozga olib keladi. Mazkur vaziyatdagi inqirozning ehtimoli senariylaridan biri, uni bartaraf etish yo‘llari, hamda olim xulqining ba’zi o‘ziga xos chizgilari idrok etish falsafasi muammolari bilan shug‘ullanuvchi bir amerikalik olim tomonidan juda yaxshi tasvirlangan.

“Bittagina talqin qiluvchi sxemaga asoslangan formal operatsiyalar boshqa sxemadan kelib chiqqanga biron bir tasdiqni isbotlab berolmaydilar. Birinchi sxemaning tarafdorlari, ikkinchi sxema tarafdorlari ularni tinglashlariga ham erisha olmaydilar, chunki buning uchun ikkinchi sxema tarafdorlari yangi tilni o‘rganishlari lozim. Biroq yangi til qandaydir ma’noga egaligiga ishonmasdan turib hech kim yangi tilni o‘rganmaydi. Raqib auditoriya aslida yangi konsepsiyalarni o‘rganib chiqishdan ongli ravishda voz kechishi mumkin. Buning sababi raqib auditoriya vakillari mulohazalari uchun bunday yo‘nalishni qabul qilsalar, bu ularni nazariyasiga mos bo‘Imagan xulosalarga olib keladi, degan xavfda bo‘ladi. Qarashlarning yangi tizimi tarafdorlari o‘z auditoriyasini ta’limotiga nisbatan uning intellektual moyilligiga erishibgina ishontirishlari mumkin. Yangilikni bunday qabul qilib idrok etish evrestik jarayondir. Bu harakatda shaxs o‘ziga-o‘zi hiyonat qiladi.

Demak, bu murojaat etish harakatidir. Natijada maktabni tashkil qiluvchi shogirdlar vujudga keladi. Bu maktab vakillari aynan shu paytda maktab uchun tashqarida bo‘lgan barcha olimlardan mantiqiy uzilish bilan ajralib qoladilar. Ular o‘zgacha o‘y laydilar, boshqa tilda gapiradilar, boshqa dunyoda yashaydilar” (Polani M.)

Xulosa shuki, yangini ilmiy almashinuvga kiritish doimo yoki deyarli doimo ham sof intellektual, ham sof hissiy omillar bilan murakkablashadi, “intellektual bahslar to‘qnashuvida har bir tomon so‘zsiz opponent shaxsiga tajovuz qiladi. Bu mojarolar aksariyat hollarda asl ilmiy bahslar ko‘rinishida bo‘lmaydi. Bular ilmiy qarashning raqobatda bo‘lgan uslublari o‘rtasidagi mojaro yoki ilmiy qadriyat va ilmiy tadqiqotning asl jarayoniga noqonuniy aralashayotgan ilmdan tashqari bo‘lgan manfaatlar o‘rtasidagi to‘qnashuv ko‘rinishida bo‘ladi” (Polani M.) Aynan shuning uchun ham sodda, biroq majburiy qoidalarga rioxalarga qilgan holda bahs yuritish mahorati tadqiqotchi yuqori malakasining ko‘rsatgichi hisoblanadi.

Bunday qoidalardan eng ahamiyatlilarini quyida keltiramiz:

1.Ochiq muhokamada nafaqat xatolar, balki jiddiy kelishmovchiliklar ham bahs yordamida bartaraf etiladi (M. Ye. Saltikov-Shedrin).

2.Nimanidir qabul qila olmasang, ammo bu holatni yaxshi anglasangdagina shunda unga qarshi bahs yuritish mumkin (V.G.Belinskiy).

3.Tushunmagani haqida qanchalik ko‘p bahs yuritsa, shunchalik ko‘p adashadilar: haqiqat shami uni naqadar kuchli qimirlatishsa, shu qadar tez o‘chadi (P. Buast).

4.Agarda siz, siz bilan bahs yuritishlarini va sizni tushunishlarini xohlasangiz o‘zingiz ham o‘z raqibingizga e’tiborli bo‘lib, raqib so‘zlagan so‘zлari va ko‘rsatgan dalillarini aynan shu bergen ma’nosи va talqinida qabul qilishingiz mumkin (V. G. Belinskiy).

5. E'tiqod sizniki emasligi uchun emas, balki haqiqiyligi uchun qimmatli bo'lmog'i lozim (V. G. Belinskiy).

6. Bahsda so'zlarining yumshoq, biroq dalillarning qattiq bo'lishiga harakat qil! (D. Vilkins).

7. Xatolarni ko'ra bilish aytarli muhim emas, unga mos munosabat bildirmoq muhimdir (M. V. Lomonosov).

8. Boshqa insonni gapiroayotgan paytida gapini bo'lishdan ziyodroq axmoqlik yo'qdir (E. Lokk).

9. Agarda ma'lum bir fikrni asoslab berish uchun erkin bahsga to'sqinlik qilish zarur bo'lsa, bu mazkur fikrni ratsional asoslarning yetishmovchiligi yoki yo'qligidan darak beradi (B.Rassel).

10. Har bir bahsda jahlimiz chiqqan paytda, biz haqiqat yo'lida kurashmoqdan to'xtab, o'zimiz uchun babs yurita boshlaymiz (T.Karley).

11. Inkor etish uchun jiddiy dalillaringiz bo'lmasa, yaxshisi hech narsa so'zlamang, kuchsiz himoya raqibning kuchini oshiradi, mahoratsiz javobdan ko'ra, sukul kamroq zarar yetkazadi (K.Kolton).

12. Yangilikka o'rganing! (V. Visotskiy).

Ilm-fan va ijod. Agarda ilmiy adabiyotni o'qishda o'zga fikrlarni o'zlashtirish yoki shaxsiy ilmiy muloqotda ishtirot evrestik xarakterga ega bo'lsa, bu yangilikni izlash jarayoni ijodiy harakat, akt bo'lmog'i lozim.

Ilmiy tadqiqot ishidagi yangilik toifasining o'zi turli hodisalarni o'z ichiga qamrab oladi: ilk bor aniqlangan til dalili yoki qonun, tadqiqotning yangi uslubini yaratish, muammo qo'yish yoki uni hal qilish, yangi ilmiy yo'nalishni kashf etish.

"Yangi til dalili" tushunchasi mazkur qatordagi eng soddasidek ko'rindi, aslida esa u tadqiq etishning obyekti sifatida xizmat qilayotgan til voqeligi va lingvistik bilimning konseptualligi o'rtasidagi ajralmas aloqani namoyon qiladi va murakkabligini ko'rsatadi. Yangilikning eng tipik holatini olamiz: tadqiqotchi ilmfanga noma'lum bo'lган tilni o'rganishga murojaat qiladi. Bu qadimgi yodgorliklarda topilgan til (XX asr lingvistikasining haqiqiy tarixidagi D.Knorozov tomonidan topilgan maya qabilasi tili) yoki yozuv va qayd etishning boshqa shakllariga ega bo'lmagan, tadqiqotchi uchun uzoq va qiyin bo'lган joylarda yopiq holda yashayotgan etnik jamoaga tegishli til (bunga misol XX asrning 40 yillarida amerikalik tilshunoslar E.Sepir va B.L.Uorf tomonidan kashf etilib, tasvirlangan xopi hindu qabilasining tilidir) bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda ilm-fan uchun yangi til dalillari – tilning barcha birliklari, ularning aloqa turlari va ular tashkil qiluvchi tizimdir.

Til birligi nima, ularning aloqasini qanday aniqlash va tasvirlash, til tizimini mutanosib va munosib tavsifi uchun qanday asoslarni ajratish lozimligini aniqlash uchun ma'lum lingvistik nuqtai nazar, pozitsiya zarurdir, bu nuqtai nazar o'rganilayotgan tilning maksimal darajadagi obyektiv tasvirini tavsifda berishi, ya'ni faoliyat yurituvchi ma'lum lingvistik konsepsiya bo'lmog'i lozim. Bu tilni nafaqat nazariy anglashda, balki uni amaliy o'rganish sharoitlarida mavjud bo'lган lingvistik bilimning konseptualligidir.

Sepir va Uorf xopi hindu qabilasi tilini fanga ma'lum bo'lган tillar bilan tubdan o'xshamasligini aniqlab, lingvistik tasvirning yangi turi va tadqiq etishning prinsipial yangi uslubini yaratishlari lozim edi, natijada tilshunoslik nafaqat muayyan yangi

tilning tavsifi va tasviri bilan boyidi, u tadqiqotning yangi uslubiga ega bo‘lib, inson tili tabiatи haqidagi tasavvurlarni ahamiyatli darajada umuman kengaytirdi. Sepir va Uorf tomonidan ishlab chiqilagn uslub an’anaviy lingvistik obyektlarga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin edi, bu mazkur tillarda avval noma’lum bo‘lgan xususiyat va sifatlarni aniqlash imkoniyatini berar edi. Bu esa o‘z navbatida, lingvistik fan turining o‘zgarishiga, uni mavjudlik uslublarini va boshqa fanlar bilan munosabatlarini o‘zgarishiga ko‘maklashdi.

Ammo ilmiy almashinuvga yangi tilning kiritilishi zamonaviy lingvistika uchun u qadar tez-tez bo‘ladigan hodisa emas, chunki yer yuzidagi tillarning asosiy qismi tasvirlanib, tavsiflanib, tasniflab bo‘lingan. Shunga qaramasdan, ilmiy tadqiqotga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri bu yangilikdir. Bu albatta, tabiiy va qonuniy. Chunki har bir obyekt, xattoki batafsil o‘rganilgan obyekt ham ko‘p tomon va jahhalarga ega, ular o‘z navbatida lingvistik bilim zahirasi chuqurlashgani va kengaygani sari tadqiqotchingin o‘rganish maydoniga kiradi.

Ilmiy dalilni ajratib olib anglash aksariyat hollarda ijodiy izlashning boshlang‘ich nuqtasi, dastlabki punktidir. Chunki, bu vaziyatda uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha omillar mavjud.

Avvalambor, bu tadqiqotchingin o‘z kuzatuvlari va bu kuzatuvlarini talqin qilish natijasida olgan yangi ma’lumotlar hamda tadqiqotchida dastlab mavjud bo‘lgan bilimlarning sintezidir. Ilm-fan vakillari tadqiqot, kuzatuv, tajribaga qadam qo‘yanlarida idrok etilayotgan voqelikni bilimning tashkillashtirilgan zahirasi bilan boyitadilar. Ular o‘z idroklari tasvirini g‘oya va mavjud bo‘lgan dalillarni uyg‘unlashtirish shaklida fikriy eksperiment bilan to‘ldirishga intiladilar. Mazkur jarayon ta’siri ostida emperik, nazariy hodisasi ilmiy dalilga aylanishi kuzatiladi. Bu dalil u yoki bu ilmiy konseptual tizimda o‘z muayyan o‘rnini egallaydi. Bu dalil mazkur tizimga nisbatan o‘zining barcha o‘zga “kiyimlari”ni tashlab yuboradi va o‘xhash hodisalar sinfining vakili sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy dalillar majmuasidan nazariy yondashuvlar yordamida hal qilinayotgan muammoga nisbatan yondashuvni belgilab beruvchi ishchi gepoteza shakllanadi. Ijodiy izlanishning yo‘nalishini belgilab beruvchi bunday g‘oyasiz ijodiy izlanish ilmiy kashfiyotga olib kelmaydi.

Ishchi gepoteza oldindan o‘ylangan g‘oya deb nomlanishi mumkin. Shunday savol paydo bo‘ladi: agarda obyektivlik ilmiy bilimning muhim xususiyatlaridan biri bo‘lsa, nimaga mazkur holatda ilmshunos oldindan o‘ylangan, obyektivlikdan mahrum bo‘lgan g‘oya zaruriyati haqida so‘z yuritadi? Chunki, ilmiy dalillarni anglash mohiyati va ular asosida nazariy tasvirni yaratish, ularni ma’lum tarzda tizish va tushuntirish zaruriyati bilan doimo bog‘liqdir. Tuzilishning mazkur uslubi bir tomonidan dalillarning o‘zining xarakteri bilan tavsiflansa, boshqa tomonidan olimda mavjud bo‘lgan bilim, tajriba, intuisiya asosida yaratiladi. Bundan farqli o‘laroq, biron bir masala yoki biron bir muammoni hal qilishga kirishgan tadqiqotchi bu yechimni qayerdan va qanday izlash haqidagi tasavvurlarga ega bo‘lmog‘i lozim. Bu esa o‘z navbatida, oldindan o‘ylash, ko‘ra bilishga olib keladi. Bunday taxminlar ilmiy tadqiqot jarayonida tasdiqlanishi yoki tasdiqlanmasligi mumkin.

Agar olim aniqlagan dalillarga qarama-qarshi tarzda o‘zining ilk, birlamchi taxminlarini saqlashga intilgandagina zaruriy oldindan ko‘ra bilish ilmiy bilim obyektivligi uchun zararli, xavfliga aylanishi mumkin.

Ishchi gipoteza ilmiy tadqiqot jarayonida olg'a surilganligi va jarayonga ko'ra o'zgarishi sabab ham ishchi deb nomlanadi.

Maksimal darajadagi ijodiy sa'y-harakatlar bilan ta'minlanadigan yangilikning oliy darajasi kashfiyat va ixtiro bilan bog'liqdir.

IXTIRO – bu insonni atrofida mavjud bo'lgan tabiiy dunyoda uchramaydigan narsani yaratish. Odatda, bu texnik fanlar bilan bog'liq, biroq gumanitar sohalarda ham ixtiro qilish mumkin. Quyidagilarni ixtiro qilish mumkin: asbob-uskuna, metallga ishlov berish prinsipi, yozuvi yo'q til uchun alifbo, o'qitish uslubi, spektaklda sahna makonini tashkil qilish uslubi va h.k.

KAShFIYOT – bu insonning tashqarisida yoki insonning o'z ichida obyektiv tarzda mavjud bo'lganning mohiyatini anglash, topishdir. Quyidagilarni kashf qilish mumkin: yangi yulduzni, jamiyatda daromadlarning taqismlanish prinsipi, shoirning noma'lum she'ri, she'riy matnni tuzilish qonunlari, bo'g'inda tovushlarning taqismlanish qonuni va h.k. Kashfiyat paytining o'zi doim ichki sabablar natijasida, o'zidan o'zi, ijodiy sa'y-harakatlarning qudratli to'plami natijasida paydo bo'ladi. Bu ijodiy sa'y-harakatda intellektning kuchi, fantaziyaning parvozi, hissiyotlarning oldindan darak berishi, bilimlarning barcha to'plangan zaxirasi, izlanishning kuchi va o'zining haqligiga bo'lgan ishonch birlashadi.

Biroq kashfiyat amalga oshirilishi uchun olim shaxsiga nisbatan ta'sir etadigan bir qator "tashqi" omil va holatlar zarurdir. Ular birinchi navbatda, doirasida idrok etish jarayoni kechayotgan muammo holati bilan bog'liq bo'ladi.

Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

1.Ilm-fanda muammoni tavsiflashda eng umumi variantning avjudligi omili. Mazkur variant muammoni yechishning har nday urinishi uchun asos sifatida xizmat qiladi.

2.Tushuntirilmagan va tushuntirilgan, mavjud bo'lgan nsepsiya va dalillarning doirasiga to'g'ri kelmaydiganlarning obyektiv subordinatsiyasidir.

3.Kashfiyotdan avval mavjud bo‘lgan bir qator muvaffaqiyatsiz chimlar ma’lum darajada kashfiyotga asos sifatida xizmat qila ish omili.

4.Muammoni hal qilishning dastlabki sa’y-harakatlari bilan arga qisman ishlov berish, o’zlashtirish, bahs yuritish shaklida oqaning mavjudligi omili.

5.Ilmiy izlanish jarayonida fikrning kutilmagan nostandard irilishining mavjudligi omili.

II.Ilmiy-tahlil natijalarini dastlabki umumlashtirish.Til dalillarini yig‘ish va tahlil qilish olimga olingan ma’lumotlarni umumlashtirish, ularni zamonaviy ilm-fan kontekstida anglash imkoniyatini beradi. Tahlil jarayonida olim kuzatilayotgan hodisalarining o‘xshashligi va farqini aniqlaydi, ularni sinflarga guruhlashtiradi, tasnif yaratadi, aloqalar xarakterini kuzatadi, ularning muntazamliligi darajasini aniqlaydi, o‘z nazariy qarashlarini kuzatuv va eksperimentlar natijalari bilan solishtiradi, mazkur tadqiqotda olgan o‘z natijalarini adabiyotdan ma’lum bo‘lgan o‘zga natijalar bilan taqqoslaydi. Bunday ishchi jarayonida u o‘zining dastlabki g‘oyalarini to‘g‘rilab bahsning yangi darajasiga chiqadi, boshqa tadqiqotchilarining qarash va yondashuvlarini nafaqat umumilmiy va umummantiqiy nuqtai nazardan baholaydi, balki ularga shaxsan o‘zi olgan yangi natijalar yordamida ham baho beradi.

Ilmiy tadqiqot ishining mazkur bosqichining o‘ziga xosligini tavsiflagan holda doimiy va muntazam o‘z-o‘zini to‘g‘rilashning muhimligi va zarurligini ta’kidlash lozim. Chunki, nazariy bilim va kuzatuv natijalarini taqqoslaganda olim jiddiy xavf-xatarlarga duch keladi.

Birinchi xavf-xatar – o‘z natijalariga ishonmaslik, avvaldan ilm-fanga ma’lum bo‘lganga o‘xshamasligi, ularning yangiligidan qo‘rquvdir.

Ilm-fan tarixida tadqiqotchining buyuk kashfiyot ostonasida to‘xtatab qolishi, bunda bu tadqiqotchi dastlabkilar o‘rinda, orqa planda qolib ketgani, kashfiyotchining shuhrati esa boshqaga nasib etgan holatlar ham mavjud.

Ikkinchisi aksincha, ma’lum g‘oyaga tobelik, uni narsalarning haqiqiy holati bilan mos kelmasligini ko‘ra olishga qobiliyatining yo‘qligi, istak yo‘qligi, bu ma’lum g‘oyaga tadqiqot natijalarini “moslashtirish”dir.

Sermahsul g‘oya doimo ilm-fanning eng katta qadriyati bo‘lgan. Bu borada V.G.Belinskiy yetarli darajada qat’iy bo‘lmasada, biroq juda aniq aytgan: “Ilm-fanda g‘oyalarni izlamoq darkor. G‘oya yo‘q, fan yo‘q. Dalillarni bilish dalillarda g‘oyalar mavjudligi bilan qimmatlidir. G‘oyasiz dalillar inson va uning xotirasi uchun keraksiz chiqindidir”. Biroq u o‘z maqsadi sifatida g‘oyani ilm-fan uchun muhim deb bilgan. Ongli ravishda juda muhim omil sifatida qayd etgan: “G‘oyalar dalillarga berkingan”, ya’ni dalillarni topib, g‘oyani ularning ichidan olmoq kerak.

Uchinchi xavf ikkinchisi bilan bog‘liq – u olimni o‘zi ishlab chiqqan konsepsiyasiga mos kelmaydigan omillarga nisbatan e’tiborsizligi. Bunday omillarning mavjudligi hattoki, eng yorqin nazariy asosda ham qonuniydir, chunki tasvirlanayotgan obyektning barcha, mutloq hamma xususiyatlarini (ham real, ham potensial) tushuntirib beruvchi g‘oya, konsepsiya, nazariya yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas. Chunki, obyektiv dunyo doimo uni idrok etuvchi fandan boyroq va xilma-xilroqdir. Tabiiyki, nazariya obyekti tomonlari naqadar to‘liqroq qamrab olinsa, bu nazariya shu qadar mahsuldordir. Bunda olim ishlab chiqqan nazariyasiga zid bo‘lgan hodisalarga, ayniqsa, e’tibor bilan qarashi lozim. Chunki, aynan ular idrok etishning prinsipial yangi darajasiga taalluqli bo‘lgan qonun yoki aloqaning namunasi bo‘lishi mumkin.

Idrok etish jarayonida yangi bilimni olishni ta’minlab beruvchi faoliyatning barcha turlari muayyan ilmiy tadqiqiy jarayon nuqtai nazaridan olim ongida mazkur jarayonni tasviri keltirilgan ilmiy matnning fikriy obrazini yaratadi. Bunday matnni yaratish ilmiy tadqiqot izlanishining yakunlovchi bosqichi hisoblanishi mumkin.

Ilm-fan tadqiqotchi xulqining shakli sifatida fandagi axloqiy muammolar. Fanda axloq muammosi. Inson faoliyatining har qanday shakli kabi ilm-fan inson jamiyatida kechadi, zamonaviy fan esa mazkur jamiyatni mavjudligiga ham tub tarzda ta’sir o‘tkazadi. Aynan shuning uchun ham vujudga kelishdan boshlab fan insoniyatning axloqi va ma’naviyati bilan murakkab munosabatlarga kirishdi, o‘zning muayyan axloqiga ega bo‘ldi.

Fanda axloq muammosi ulkan muammo bo‘lib, hozirgi bosqichda u juda ham dolzarbdir. Fan haqiqatga abadiy intilgan yo‘lida o‘ziga nimalarni cheklashi va nimalarga ruxsat berishi mumkin va bu yo‘lda fan bosib o‘tmaydigan chegaralari bormi yoki yo‘qmi? Agarda fanning bosh maqsadi yangi bilimni izlash bo‘lsa, mazkur izlanishga xizmat qilgan va unga yo‘naltirilgan barcha jabhada hamma narsa mumkinmi? Har kuni, har soatda deyarli oddiy vaziyatlarda fan-ilm ahli doimo eng murakkab axloqiy muammolarni yechishga majburdir. Eng sodda misolni keltiramiz: insonlar har qanday tajribalarning turlari xalqaro hamjamiyat va xalqaro huquq tomonidan taqiqlangan bo‘lib, insonga qarshi hisoblanadi. Shuning uchun yangi dorini yaratganda, tadqiqotchi faqatgina hayvonlardagi tajriba yoki matematik

modellashtirish bilan cheklanib qola olmaydi: inson uchun yaratilgan dori aynan insonda tekshirilishi lozim, uni ishlab chiqarishga tekshirmsandan ruxsat berish esa xavflidir, ya’ni yanada axloqsizdir.

Ilmiy bilim obyektivdir, u yovuzlik va ezgulikdan tashqaridadir. Ammo fanni yaratayotgan inson barcha insoniy ezgu va yovuz **xislatlariga** ega bo‘lgan inson bo‘lib qoladi, unda doimo yovuzlik va ezgulik, nafrat va muhabbat, shubha, ehtiros mavjuddir. Ilmiy voqelikni murakkab, ba’zida esa fojeali holatlarida olim ham qurban, ham jallod, yangilikning kashfiyotchisi yoki undan nafratlanuvchi, o‘z fikrlarini beg‘araz hadya etuvchi yoki o‘zga fikrlarni g‘arazli maqsadda o‘g‘irlovchi bo‘lishi mumkin. Bilim axloq kategoriyalardan tashqarida, ammo axloqdan tashqaridagi olim axloqsizdir.

Tadqiqotchi axloqiy hissiyotining to‘liqligi yoki kamligi, harakat, intilish va qilmishlarining sofligi, olижаноблиги, fanga sodiqligi, boshqa hamkasabalariga nisbatan sofдilligi, boshqalarning ilmiy ishlaridan foydalanganda sofдil va adolatliligi fanning kasbiy va ijtimoiy ezgulik darajasini, mustahkam moddiy-texnik bazasini, rasional tashkilot va kasbiy ta’limning qudratli , mustaqil tizimini yaratadi.

Axloq va fan, ma’naviyat va fanning munosabatlari—“abadiy” muammolar qatoridandir, ularni bashariyat avval yechgan, hozirda yechmoqda va to tamaddun borki yechadi. Bu muammolar bilan turli muayyan ilm-fan sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar va ilmshunoslar, tarixchi va faylasuflar, yozuvchi va jurnalistlar shug‘ullanmoqdalar. Bu muammolar bilan nafaqat ilm-fan borlig‘i, balki alohida muayyan olimning hayoti to‘yingan. Ilmiy hayot xulqning o‘z qonun va qoidalari, stereotiplariga ega. Faoliyatning har qanday boshqa turlaridek, insonning ilm-fandagi xulqi ham ikki o‘zaro zid bo‘lgan tendensiyalar bilan shartlanadi. Bir tomonidan u mazkur qoida va stereotiplarga rioya qilishi lozim, boshqa tomonidan, u qanday qoida va stereotiplarga rioya qilish kerakligini erkin tanlaydi.

Ilmiy borliq tamoyillarining antinomikligi (bir-birini inkor etish qonuniyati)

Ilmiy borliqning aksariyat tamoyillari antinomikdir, ya’ni ular ikki zid, bir birini o‘zaro istisno qiluvchi holatlardan iboratdir.Ularning har biri ham amaliyot, ham mantiq bilan isbotlangandir. Ilmiy jarayon kasbiy sifat va ijtimoiy ahamiyatga mazkur antinomiyalar amalga oshirilgan sharoitdagina ega bo‘ladi. Ular quyidagilardir:

- inson naqadar ko‘p bilsa, unga bilimni rivojlantirishning shu qadar uzoq ufqlari va istiqbollari ochiladi;

- ilmiy bilimlar naqadar asosli va keng bo‘lsa, uning sohibi inson va bashariyatning idrok etish imkoniyatlari naqadar cheklanganligini anglaydi;

- ilmiy izlash – dastlab noma’lum, imokniyatsiz, tushunarsiz bo‘lganni bartaraf etishdir;

- faqatgina haqiqatda professional fan insonga “obyektiv tarzda imkoniyatsiz voqealar va aslida hal qilib bo‘lmaydigan vazifalar borligini” anglash imokniyatini beradi;

- tabiiy mantiq va sog‘ aql-idrokdan tashqarida ilmiy tafakkur yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas;

- muammoga bo‘lgan ilmiy yondashuv aksariyat hollarda sog‘ aql-idrok nuqtai nazaridan mazkur muammo anglanishining to‘liq aksi bo‘lishi mumkin;

- fan yuzini o'zgartiruvchi buyuk kashfiyotlar bilimning tamoyilli yangi qatlamini ochgan va me'yoriy fan deb ataluvchi fanning chegarasidan chiqib keta olgan tadqiqotchilar tomonidan yaratiladi;
- hattoki, eng original ilmiy g'oya va yechimlar ham aslida, me'yoriy fan rivojining ma'lum darajasiga tobedir;
- agarda fan yangi bilimni izlash bo'lsa, yangilikning eng qudratli yig'indisini mujassam etgan kashfiyot va ixtiro – mazkur izlanishning yo'lchi yulduzidir;
- kashf etilganga ishlov berish va ixtiro etilgandan foydalanishsiz fan mavjud bo'la olmaydi.

Ilm-fan ahlining xulqi qoidalari. Vaziyatning antinomikligi ilm-fan ahlining xulqini antinomikligini ham shartlab beradi, ularni quyidagi qoidalar ko'rinishida shakllantiramiz.

1. Fan ega bo'lganini imkon qadar to'liq o'rganishga intiling, an'anani hurmat qiling – bizdan avval yashaganlar bizdan axmoqroq bo'lman. Eng daho bo'lganlarni ham o'zingizga bud qilmang, hattoki eng buyuk nufuzli shaxs ham haqiqat lisenziyaga ega emas.

2. O'zganing fikrini hurmat qiling, o'zingizni fikringiz o'zingizga naqadar go'zal va ajoyib ko'rinishiga qaramasdan, sizning raqibingizda yanada go'zal va muvaffaqqiyatliroq fikr bo'lishi mumkin. O'z fikringizni isbotlash mahoratiga ega bo'ling, bunda raqibingizni xizmat pog'onasi haqida o'yamasdan, o'z dalillaringizni ishonchli ekanligi haqida qayg'uring.

3. Ilmiy adabiyotni doimo, muntazam va maqsadga yo'naltirilgan holda o'qing, bularsiz haqiqiy olim bo'lmaydi. O'qiganingizda bu asosiy maqsad emasligini, o'qish, o'rganish fikrni yaxshi, ishchi holdada saqlashning vositasi ekanligini unutmang.

4. O'zga bilimga murojaat qilganda (ma'lum muallifning g'oya, uslub, dalilini o'zlashtirganda) juda ehtiyyotkor bo'ling, manbaga murojaat qilishdan uymang, bu sizni yerga urmaydi, aksincha sizning haqiqatgo'yligingiz va bilimingiz darajasidan darak beradi. Boshqa tadqiqotchi ifoda etgan nuqtai nazarni qabul qilib, siz uni shaxsiy bilimingiz tizimiga kirtasiz va go'yoki u o'zingizni fikringiz, nuqtai nazaringiz bo'lganidek, u uchun mas'uldirsiz.

5. Tanlangan sohadagi bilimlaringizni muntazam takomillashtirib, chuqurlashtirib tadqiqot muammosi va mavzusini aniq ifodalashga intiling va olingen barcha axborotni u bilan muvofiqlashtiring. Gumanitar bilimlar sohibi faqatgina o'z mavzu va muammosida cheklanib qolsa, jiddiy natijalarga erishmaydi, filologik bilimning ishonchliliqi masalani keng anglash, uni keng madaniy tarixiy kontekstga qo'yish qobiliyati bilan ta'minlanadi.

6. Tadqiqotchi doimo o'z g'oyasi bilan mashg'uldir. Uning uchun g'oya aniq, yaqqol va jozibadordir. Tadqiqotchi xohlasa xohlamasada, "uning ko'zi bilan" qaraydi. Olim o'z fikridan doimo shubhalanadi. Fikrining eng kuchsiz tomonlarini ko'radi, boshqalardan fikri qanday o'rnlarda eng zaifligi va isbotga ko'proq muhtojligini biladi.

7. Dalillarni batafsil va maksimal hajmda to'plang, hodisalarni xolisona va batafsil kuzating, aniqlanganni hamma tomonlama shoshilmasdan o'ylab chiqing, umumlashtirish uchun yetarli material bo'lman holda konsepsiyanı to'qishdan saqlaning. Dalillarni to'plab va hodisalarni kuzatganda, bu harakatlar amalga oshirilayotgan maqsadni yanada aniqroq anglashga intiling, olingen natijalarni

anglaganda dalillarda “cho‘kib ketmang”: ko‘plab birlashmagan voqealarda qonuniyatni aniqlashga harakat qiling.

8. Ishni tabiiy yakuniga yetkazing, hayotga layoqatli chizg‘ilarni uzmang, ammo ishingizda har bir ko‘rib chiqilgan masalalar bo‘yicha hamma gapni aytishga harakat qilmang. Sizning nuqtai nazaringizdan eng muvaffaqiyatlari va to‘laqonli tadqiqotning yakunida qo‘yilgan nuqta o‘zingiz uchun ham, boshqalar uchun ham mavzu abadul-abad yopildi deb hisoblamang.

9. Ilmiy haqiqatni izlashning sermashaqqat va yakunsiz yo‘lida ishonchli yo‘ldoshlar – hamfikr va shogirdlar zarur, zamonaviy fan yolg‘izlikda amalga oshirilmaydi. Olimning eng asosiy fikrdoshi va eng xavfli raqibi – bu o‘zidir; mustaqil izlanishga, yolg‘izlikda individual ijodga layoqatsiz bo‘lgan tadqiqotchi olim emas.

10. Iste’dodli va original fikrlovchi yetakchi o‘z atrofida jonli ijodiy muloqotda tadqiqotchilarini birlashtiruvchi ilmiy maktabni nazariya va istiqbolli uslub asosida barpo eta olganligi– ilm-fan rivojining eng qudratli omillaridan biridir.

Aksincha, ilm-fanda faqat o‘z nazariyasi, faqat o‘z uslubi, faqat o‘z shogirdlarini tan oluvchi guruhni shakllantirish turg‘unlik va ilmiy fikrni yo‘q bo‘lishi uchun zamindir.

11. O‘zga ishning tanqidi ham ilmiy haqiqatni izlashning qonuniy uslubidir, ammo bu ko‘rinishda u ilmiy ishning har qanday boshqa shaklidan ko‘ra obyektivlik va konstruktivlikni talab qiladi. Har qanday noxolis va nokonstruktiv bo‘lgan tanqid doimo yana bitta imkoniyat bo‘lgan nuqtai nazarning ifodasi hisoblanadi. Bu nuqtai nazar aynan o‘zining kutilmaganligi va oldindan aytib bo‘lmasligi bilan qiziqarlidir. Sizning ishingiz tanqid obyekti bo‘ganida bu haqda unutmang!

5-Ma’ruza

Ilmiy tadqiqot metodologiyasi

Darsning o‘quv maqsadi: Ilmiy tadqiq usullari: sinxron aspect, diaxron aspektdagi tilshunoslik tahlil usullari kabi masalalar borasida bahs yuritish.

Reja:

1. Tilshunoslik tahlil usullari
2. Ilmiy tahlil standartlari (sinxron aspect, diaxron aspect)
3. Ilmiy tahlil komponentlari

Tayanch so‘z va iboralar: materialni tahlil etish uslubi, sinxron tahlil , formal – mantiqiy, diaxron tahlil , umumilmiy leksika, ilmiy nazariy, ilmiy metodik.

I. Tilshunoslik tahlil usullari. Ilmiy ishning tadqiqot uslubini aniqlashda avvalambor, materialni bayon etish uslubiga asoslanish lozim. Bunga til vositalarni tanlash va ularni nutqda faoliyatda qo‘llanishiga bog‘liqdir. Mazkur nuqtai nazardan ilmiy matn tilining bir qator xususiyatlari ajratiladi.

Ilmiy matnda bayon etish uslubi formal-mantiqiy, jamoaviy bo‘lib, asosan mulohazalardan iboratdir. Bu mulohazalarning maqsadi borliq, voqelik dalillarini o‘rganish natijalarida aniqlangan haqiqatlarni isbotlashdir. Bunda bitta holat dastlabkidan kelib chiqib, keyingi holatni anglashga tayyorlashi lozim. Ilmiy bayon emotsiyonal hissiy idrokka emas, mantiqiy idrokka qaratiladi, shuning uchun bu yerda hissiy ekspressiv vositalar bosh rolni o‘ynamaydi, ular yordamchi vazifani bajaradi.

Ilmiy matnning asosida umumiste'moldagi leksika yotadi, bundan tashqari atamalar, mavhum ma'noga ega so'zlar, yordamchi so'zlar va gap, uning qismlari o'rtasidagi mantiqiy aloqalarni ta'minlab beruvchi so'zlar ishlataladi. Sinonimlarning keskin qisqarishi kuzatiladi. Ilmiy matnda quyidagilarni farqlash lozim: a) atama leksikasi (umumilmiy va maxsus); b) umumilmiy leksika; v) ilmiy fikrni shakllantiruvchi so'zlar. Umumilmiy atamalar umumiyl tilda ko'p ma'noli bo'lishi mumkin, ammo ilmiy tilda ular bir ma'nolidir. Maxsus so'zlar esa ham umumiyl ham ilmiy tilda bir ma'noga ega. Ilmiy fikrni shakllantiruvchi so'zlar – bog'lovchilar, bog'lovchi so'zlar, ravish, kelishik – ot konstruksiyalarni, kirish so'z, so'z birikma va gaplari, shaxssiz va shaxsi noaniq gaplardir. Ular quyidagilarga bo'linadi:

- 1) mantiqiy kontekstni kirituvchi;
- 2) axborotni obyektivlik darajasiga tavsif beruvchi. Bundan tashqari aniqlashtiruvchi so'zlar ham ajratiladi – cheklovchi, kuchaytiruvchi, ajratuvchi yuklama va ravishlar, asosiy ma'no yuklamasiga ega dominanta so'zlar yoki tayanch so'zlar. Tilning leksik tasviriy ifodalash vositalaridan ilmiy matn uchun qiyoslash eng ko'p qo'llaniladigan vositadir.

Ilmiy tilda ot funksional imkoniyatlarining kengayishi va aksincha fe'l imkoniyatlarining torayishi kuzatilmoqda. Nisbatan uzun gaplar ustuvordir. Materialni jamoa uslubida bayon etishda kishilik olmoshlari mavhum xarakterga ega bo'lib, aksariyat hollarda birinchi shaxs ko'plik va uchinchi shaxs birlik hamda ko'plik shaklida qo'llanilishiga olib keladi. Ikkinchchi shaxs olmoshlari kamdan-kam uchraydi va birinchi shaxs birlik kishilik olmoshlari deyarli ishlatilmaydi. Bu bilan bir qatorda noaniq olmoshlar ishlatilmaydi, ko'rsatish olmoshlari esa gap qismlari o'rtasida mantiqiy aloqani ifodalash uchun qo'llaniladi.

Otning ustuvorligi fe'lning semantik tarzda bo'sh bo'lib qolishi, uning asosiy grammatik kategoriyalari – shaxs, son, zamon, mayl, nisbat kabi kategoriyalarni cheklanishiga olib keldi. Ilmiy matnda fe'lning barcha zamonlari uchun mavhum vaqt ma'nosini xosdir.

Sonlarni so'z bilan emas, raqam bilan belgilash ustuvor, chunki son ifodalagan axborot avvalambor ko'rish idrokiga qaratiladi.

Yuklamalar ifoda etilayotgan fikrni kuchaytirish, zid qo'yish, cheklash, ajratish vositasi sifatida qo'llaniladi.

Ilmiy matnda shartli deb nomlangan til ham keng qo'llaniladi, ya'ni o'lchov birliklari, formula, grafiklar, ko'rgazmali vositalar, chizma, sxema, jadval, diagramma, ajratib ko'rsatishning turli vositalari (kursiv, qalin va h.k.)lar ishlataladi.

Har bir til osti ilmiy tillar, ya'ni kimyo, fizika, lingvistika tillari va ilmiy matn janrlari umumiyl uslub jihatlari bilan bir qatorda o'zining shaxsiy jihatlariga ega. Masalan, referatda bayon etish uslubi formal mantiqiy bo'lishiga qaramasdan, ilmiy maqoladan farqli ravishda bayon etishning ilmiy batafsilligi mavjud emas.

Ilmiy tahlilning turlari. Ilmiy ishni o'quvchi tomonidan idrok etilishi ko'p jihatdan ilmiy janr bilan shartlanadi. Janr-bu alohida o'ziga xos tuzilmaviy-mantiqiy sxemadir. U matnni nafaqat mazmuniga ko'ra, balki bir qator boshqa ahamiyatli bo'lgan omillarga bog'liq tarzda tashkil qilish tamoyillarini ajratib berib tuzish imkoniyatini yaratadi. Tabiiyki, bitta bir xil ilmiy axborot zamonaviy rus tilining institut darsligida va lingvistlarning xalqaro kongressidagi yirik olimning ma'rzasida turlicha aks etadi. Tabiiyliki mazkur axborotning taqdim etish shart, maqsad, vazifa va

uslublari tubdan farq etishda va nihoyat, bu ikki vaziyatda axborotni kim yetkazib berayotgani va kim tinglayotganligi o‘rtasidagi munosabatlar o‘xshamasligidadir.

Ilmshunoslikda ilmiy matnlarni turli asoslar bo‘yicha tasnif qilishning ko‘plab variantlari mavjud. Bular maqsadi, adresati, kichik va kattaligi, qayd etish uslubi kabi asoslardir. Biz eng soddalari va shu bilan birga eng muhim jihatlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Avvalambor, matn nafaqat mutaxassisga qaratilgan bo‘lishi, kerak. Matn shunday tuzilishi lozimki, ilmiy axborot nafaqat professional, balki u yoki bu ilmiy muammoga qiziqqan, havaskorga ham tushunarli bo‘lishi lozim. Bunday holatda biz sof ilmiy va ilmiy ommaviy janrlarni qarama-qarshiligi haqida so‘z yuritamiz.

Fanni ommalashtirish ulkan ahamiyatga ega, shu bilan birga juda murakkab ish sanaladi. Hattoki, eng yuqori malakali mutaxassis bunday ishni amalga oshirishga layoqatli emasdir. Ilmiy ommabop matnni yaratish fanga yuqori darajada ega bo‘lish, matn mo‘ljallangan bo‘lg‘usi auditoriyani ko‘ra bilish, murakkab muammolar haqida ilmiy haqiqatni yo‘qotmagan holda sodda, ishonchli va qiziqarli hikoya qilish mahoratini talab qiladi. Nihoyat, ommaviy matnning muallifi keng bilimga ega bo‘lib, yozma nutqi yuqori darajada va hikoya qiluvchining alohida san’atiga ega bo‘lishi lozim. Chunki u yoki bu fanning ichki chuqur mantig‘i mutaxassis bo‘lmagan kishiga noma’lumdir. Mazkur fanni ommalashtiruvchi fanning uslublari va obyektni tasvirlash metodlaridan foydalangan holda fanning jozibador, qiziqarli obrazini yaratmog‘i lozim.

Sof ilmiy tadqiqotlar tadqiq predmetlariga bog‘liq ravishda ilmiy nazariy va ilmiy uslubiylarga bo‘linadi. Tilshunoslikda ilmiy nazariy matnlarni tasvirlash predmeti sifatida tilni oladilar. Bu tilda uning xilma-xilligi – alohida til dalili yoki hodisasadidan tortib, butun bashariyat tillariga xos bo‘lgan global qonunlarigacha ko‘rsatiladi.

Ilmiy-uslubiy ishlar tasvirlash predmeti sifatida tilni o‘qitish jarayonini o‘rganadi: o‘qitishning uslub va metodlari, o‘qitilayotganlarning idrok etish xususiyatlari, o‘quvchi xulqining o‘ziga xosligi, o‘quv maqsadlarida til materialini talqin qilish uslublari, ilmiy-uslubiy ishlarning asosiy o‘quvchilari, o‘qitish muammolari bo‘yicha mutaxassislar va amaliyotdagи o‘qituvchilardir. Bu borada o‘qituvchining qo‘lida mutolaa qilishning keng doirasi mavjud: uslubiy adabiyotni muntazam o‘qishdan tashqari u o‘zi olib borayotgan kurslarning muammolari bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy adabiyot bilan ham muntazam tanishishi lozim. O‘z-o‘zidan ma’lumki, ilmiy nazariy adabiyot nazariyotchi tilshunos uchun mutolaa qilishning doimiy predmetidir.

Ilmiy-ommabop, ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy matnlar turli hajmlarda bo‘lishi mumkin: kichik maqola yoki eslatmadan katta kitobgacha.

Maqolalar yoxud maxsus to‘plamlarda yoxud jurnallarda nashr etiladi. Maqola ilmiy ma’ruzaga yaqin, u konferensiya, simpozium, seminarlarga taqdim etiladigan ilmiy asardir. Odatda, u o‘qiladigan og‘zaki variant va olimlarning mazkur uchrashuvi materiallarini o‘z ichiga olgan maxsus to‘plamda nashr etiladigan yozma variantga ega. Maqola kichik shakllardan biri hisoblansada, uning hajmi va mazmuni borasidagi miqyosi juda ham yirik bo‘lishi mumkin. Kattalik nuqtai nazaridan u 20, 30, 40 bet (ba’zida undan ko‘p)dan iborat bo‘lishi mumkin. Mazmun jihatidan esa zamonaviy tilshunoslikning ko‘plab yirik muammolari aynan maqolalarda, tilshunoslikning butun bir tarmoqlari aynan maqolalarda ifodalanib boshlanganlarini hisobga olsak, uning miqyosini anglab olamiz. Ilmiy ommabop matnlar aksariyat hollarda broshyura

ko‘rinishida rasmiylashtiriladi, hajmi bo‘yicha u kichik kitob va yirik maqola o‘rtasidagi asardir, biroq u alohida nashr ko‘rinishida chop etiladi. Hajmi bo‘yicha eng yirik hisoblanadigan ilmiy-nazariy yoki ilmiy-uslubiy ish monografiyadir. Monografiya bir muallif yoki tadqiqotchilar guruhi tomonidan biron-bir muammoni fundamental tarzda tadqiq etilishining jarayoni natijasidir.U alohida kitob tarzida nashr etiladi. Monografik turdag'i tadqiqotlar qatoriga o‘rganilayotgan muammo xarakteri va batafsilligi bo‘yicha fan nomzodi yoki doktori ilmiy darajasiga talabgorlikka yozilgan dissertatsiyani ham kiritish mumkin. Monografiyalardan farqli o‘laroq na nomzodlik, na doktorlik dissertatsiyasi maxsus kitob sifatida nashr etilmaydi, u faqatgina bosma variantda mavjuddir. Dissertatsiyaning to‘liq matni bilan dissertatsiya himoyasi bo‘layotgan muassasaning kutubxonasi, milliy kutubxona va ba’zi bir boshqa kutubxonalarda tanishish mumkin. Ammo har bir dissertatsiya asosida uning muallifi alohida matnni yaratadi. Uning hajmi kichik broshyuraga teng bo‘ladi. Bu matn dissertatsiyaning avtoreferati deb nomlanib, ma’lum sxema bo‘yicha dissertatsiya mazmunining qisqa bayonidir. Avtoreferatlar dissertatsiyaning himoyasidan oldin mazkur muammo bo‘yicha adabiyotlar mavjud bo‘lgan barcha kutubxonalarga hamda o‘xhash yoki yaqin muammolar bilan shug‘ullanadigan muassasalarning kutubxonalariga yuboriladi. Bundan tashqari dissertatsiya tadqiqoti mazmunining eng ahamiyatli aspektlari odatda, mazkur muallifning joriy nashrlari(maqola, ma’ruza)da o‘z aksini topadi.

Ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy izlanishlarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelgan janr o‘quv-uslubiy janrdir. Ularga mansub matnlar ilmiy-nazariy tadqiqotlardan olingan natijalar ilmiy-uslubiy tadqiqotlar asosidagi o‘qish jarayoniga kiritilishi uchun mo‘ljallangandir. O‘quv-uslubiy adabiyotning eng ma’lum turlari bu kurs dasturlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, mashq to‘plamlari, xrestomatiyalardir.

Keltirilgan ro‘yxatdan o‘quv adabiyot asosan o‘qitilayotganga qaratilgani aniq bo‘ladi, biroq o‘qitish jarayonida o‘qitayotgan ham undan faol foydalanadi. O‘quv adabiyotning turlari mazmun va tuzilmasi bo‘yicha farqlanadi. Kurs dasturi kurs shakllangan asosiy mavzu va muammolarini sanab o‘tadi, uning maqsad va vazifalarini aniqlab beradi, asosiy adabiyotlarni ko‘rsatib o‘tadi.

Darslik va o‘quv qo‘llanmalarda asosiy urg‘u nazariy materialning tizimlashtirilgan bayoniga qaratiladi. Bunda muallif umuman original konsepsiyanı, yoki mavjud bo‘lgan ma’lum konsepsiyalardan birini o‘z tushunishicha bayon qilishi mumkin. Kursning mavzu va muammolarini tanlash esa uning dasturi bilan belgilanadi. Darslik o‘z hajmi bo‘yicha odatda, butun fanni yoki uning asosiy bo‘limlarini qamrab oladi. O‘quv qo‘llanma esa alohida mavzu va muammolar bilan cheklanib qolishi mumkin. Darslik va o‘quv qo‘llanma muvofiq fanning nazariy materialini bayon qilish bilan bog‘liq bo‘lsada, muallif bir qator uslubiy vazifalarni hal qiladi: o‘qitilayotgan o‘zlashtirish uchun optimal sharoitlariga ega bo‘lishi uchun materialni qaysi tarzda joylashtirish va tuzish lozim; u yoki bu mavzuni qay hajmda taqdim etish lozim; mavjud bo‘lgan bilim va bir ma’noli yechimga ega bo‘lmagan bahsli savollarni qanday proporsiyalarda berish, ularni mutanosibligini ko‘rsatish va h.k.

Mashq lingvistik to‘plamlar ma’lum tarzda tuzilgan va aksariyat hollarda muayyan darsliklar bilan bog‘liq bo‘lgan til materialini kuzatish va amaliy tahlil qilish

ko'nikma va mahoratini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan har xil turdag'i vazifa, savollar (o'qitish, nazorat, qaytarish)dan iborat.

Xrestomatiya - bu o'quv maqsadlari uchun moslashtirilgan original matnlar yoki ularning qismlaridan tanlab to'plangan asar, bularning barchasi o'quv dasturi mavzulariga muvofiq amalga oshirilgan rubrikatsiya xarakterida o'z aksini topadi. Xrestomatiyada qisqartmalar, izohlar hamda ma'lumot apparati beriladi, ilmiy-ommabop, ilmiy-texnik, ilmiy-uslubiy va o'quv-uslubiy janrlardan tashqari axborot ma'lumotnomaga janrlari ham ajratiladi, ular qatoriga qomuslar (umumiyligiga va maxsus hamda ensiklopedik qomus, atamashunoslik lug'ati, ma'lumotnomalar) kiradi. Manbalarning ko'rsatilgan barcha turlari hodisa, jarayon, dalil, tushuncha va kategoriyalari haqida umumiyligiga ega. Axborot-ma'lumotnomaga tilshunoslik adabiyoti tizimida lingvistik lug'atlar alohida o'rinni egallaydi. Ular fan sifatidagi lingvistika haqida axborot bermaydilar. Lug'atlarda til tizimi va uning faoliyat yuritishi xususiyatlari haqida axborot berilgan. Biroq til tizimini tasvirlash va tavsiflash tuzuvchi nuqtai nazariga bog'liq bo'lganligi sabab ular ochiq bo'lmagan ko'rinishda konseptual nazariy axborotning yirik hajmiga ega. Bundan tashqari ma'lumot adabiyotlarining boshqa turlaridan farqli ravishda yuqorida qayd etilganidek lingvistik lug'atlarning tartibga solingan til materialining ulkan hajmini o'zida mujassam etadi, ya'ni axborot-ma'lumotnomaga vazifasi bilan birgalikda umuman boshqa vazifalarni bajaradi. Agarda ma'lumotnomaga va qomuslar o'z kitobxonini unga qiziqtirgan obyektlar haqida manbalarning ulkan sonidan ma'lumot olib yuqori darajada ularni umumlashtirib xabardor qilsa, kitobimizda bibliografik annotatsiya va rezentsiya ko'rinishida taqdim etilgan axborot adabiyotining boshqa sinfi o'z oldiga o'zga vazifani qo'yadi – bularda muayyan manba mazmuni haqida kitobxonlarga ma'lumot beriladi. Qomusdagi maqolaning muallifi ko'plab manbalarni umumlashtirgan holda o'z qo'lida bo'lgan axborotning hajmini ma'lum tarzda tashkillashtirishi lozim.

Demak, shu orqali tasvirlanayotgan va tavsiflanayotgan obyektga o'z tushunchasi o'z talqinini beradi. Annotatsiya muallifi ham kuchli tarzda annotatsiya qilinayotgan matn mazmunini umumlashtiradi, chunki annotatsiya mazkur matnning juda ham yuqori darajadagi qisqartirilgan (5-6 ta gapdan iborat) bayonidir. Ammo bu yerda umumlashtirish konseptual emas, sanab o'tish xarakteriga ega. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, barcha axborot janrlari ichida annotatsiya eng obyektivlashgandir.

Annotatsiyada odatda, ish qanday mavzuga bag'ishlanganligi tadqiqotning qanday uslublaridan foydalanganligi, buning uchun qanday til materiallari jalganligi va tadqiqotning adresati kim ekanligi ko'rsatiladi. Annotatsiya bibliografik tavsifda nom bilan yagona kompleks bo'lganligi sabab, uni tuzishda manba mavzu va muammolarining iboralari uning nominining iboralarini qaytarmasligi lozim.

Ilmiy asarning tuzilmaviy xususiyatlari. Ilmiy asarning tuzilmaviy xususiyatlari fikrning mantig'i bilan belgilanadi, ular matnning tuzilmaviy unsurlari, kompozitsiya va rubrikatsiyasini belgilab beradi. Ilmiy tadqiqotning jarayonini quyidagi sxema tarzida taqdim etish mumkin:

- 1) tadqiqotning dolzarbligi, yangiligi, obyekti, predmeti va uslubini asoslab berish;
- 2) tadqiqot jarayonini tasvirlash;
- 3) ish natijalarini taqdim etish va muhokama qilish;
- 4) xulosalarni chiqarish.

Bu mantiqiy sxema fan sohasi, janriga ko'ra o'zgarishi mumkin, ma'lum darajada muallifning individual uslubiga ham bog'liqdir. Bularning barchasi ilmiy asarning kompozisiya va rubrikasini belgilab beradi.

Kompozisiya – bu asarning tuzilmasi, qismlarining mutanosibligi va o'zaro joylashuvi. U doimo ikki o'zaro bog'liq qismidan iborat, ya'ni tasviriy (obzor) va asosiy (tadqiqot). Kompozisiyani tanlash, uni detallashtirish hal qilinayotgan ilmiy vazifaning turiga, tadqiqotda tanlangan uslub, fan sohasi, janr, an'ana, muallifning individual uslubiga bog'liqdir. Kompozitsion tuzilmaning tashqi ifodasi rubrikatsiyadir. Unda matnni tarkibiy qismlarga bo'lish, bitta qismni boshqadan grafik tarzda ajratish hamda nomlarni raqamlarni qo'llashdir. Rubrikatsiya ilmiy tadqiqotning mantig'ini tashkil etadi.

Ilmiy tahlilning standartlari. Ilmiy bilimni qayd etishning asosiy uslubi ilmiy matndir. U adabiy tilning ilmiy uslubi vositalari yordamida ma'lum standartlarga ko'ra yaratiladi.

Standart ilmiy matnni tashkillashtirishda ikki sababga ko'ra juda katta rolni o'ynaydi: birinchidan, fan rasional universal bilim turi sifatida qayd etishning muvofiq universal uslublarini talab qiladi (masalan, standart matematik formula va ularni tashkil qiluvchi ramzlar turli tillardagi va turli fanlarga oid matnlarda ishlatiladi); ikkinchidan, ilmiy asarning bosh maqsadi matnni idrok etuvchiga ilmiy izlanishlarning predmetini tashkil qilgan ma'lumotni, axborotning boshqa turlarini o'zlashtirishga e'tiborini qaratmagan holda yetkazib berishdir. Bu maqsadda matnni tuzish standartlari va tildagi standartlar ham ishlatiladi. Standart o'zining paydo bo'lishi bilanoq kitobxon nimaga tayyor bo'lishi, unga axborotning qanday turlari taqdim etilishi, ular tasvir ierarxiyasida qanday o'rinni egallashi haqida signal beradi. Standartlar matnning til shakli va muallif tafakkuri mantig'ini ham idrok etilishini osonlashtiradi.

Standart majburiyligining yuqori darajasi va qo'llanilishining takroriyligi hech qanaqasiga tadqiqotching individualligini va fikrining originalligini namoyon qilishga xalaqit bermaydi. Buning sababi avvalambor, muallifning fandagi qadriyati va o'ziga xosligi, uning fikrining qadriyati va o'ziga xosligi bilan shartlanishidadir. Standart esa bu fikrni ochib berishga, uni mavjud bilim bilan mutanosiblikda taqdim etishga imkon beradi. Undan tashqari original natijaning tuzilmasi va ifodalash vositalari bo'yicha standart matnda taqdim etish harakati aksariyat hollarda olimga o'zg'oyalarining yangilagini chuqur anglash, tasvirning shakllangan apparatini qayta qurish zaruriyati darajasini ko'rsatib beradi. Standart sohibi ongida aniq tasavvurga ega bo'lgan ishlab chiqilgan standartning mavjudligi vujudga kelayotgan o'zgarishlarni tezroq va aniqroq bilish imkoniyatini beradi (bunday turdag'i har qanday standart buyruqli tanlovsiz majburiyatga emas, istakli majburiyatga egaligi o'z-o'zidan tushunarli), bundan tashqari bu matnning zarurligi va axborotliligi darajasini ham ko'rsatadi.

Tasvirlash standarti ko'plab omillarga bog'liq ravishda o'zgaradi: bu tadqiqot amalga oshirilayotgan soha predmeti, tasvirlanayotgan obyekt va predmet turi, tadqiqotning uslubi, maqsad va vazifalari, ilmiy matnning nazarda tutilgan adresati kabi omillardir. Bu variativlik muallif tafakkurining individual xususiyatlari bilan hamjihatlikda har bir ilmiy matnning unikal, betakror qiyofaisni yaratadi.

Ilmiy matnni yaratishda amalga oshiriladigan standartlar umumlashtirishning har xil darajalari bilan tavsiflanadi. Ba'zilari turli janrdagi matnlarning differensiyasini

ta'minlab beradi. Masalan, nazariy-lingvistik monografiyani tuzish prinsiplari ahamiyatli darajada lingvistikaning xuddi shu bo'limi bo'yicha yozilgan darslikning tuzilmasidan, xuddi shu bo'limni qomusiy lug'atda tasvirlovchi maqoladan ham farqlanadi. Boshqa standartlar matnning alohida qismlarini ularning vazifasiga bog'liq ravishda tuzish, ma'lum sxemalar asosida tasvir, tavsif, isbot, mulohaza, xulosalarni yaratish imkoniyatini beradi.

Nihoyat, alohida iboralar va murakkab sintaktik yaxlitliklar darajasida ilmiy uslub uchun tipik bo'lgan gap va so'z birikmalarining modellari qo'llaniladi. Masalan: "...ma'nosi ahamiyatini pasaytirmagan holda", "qayd etishni lozim topdik", "ammo aytilgan ... degani emas", "matn tahlilining eng muhim aspektlari shundaydir", "dastlabki material sifatida tanlangan matn...", "misol tariqasida keltirsak bo'ladi".

Ilmiy uslub standartlariga atamashunoslik tizimlari, maxsus nomlar tizimlari, umumilmiy leksika deb nomlanuvchi massivlarga mansub deb hisoblash lozim. Umumilmiy leksikaga turli fanning tushuncha, kategoriya, harakatlarini belgilovchi umumiyo so'zlar kiradi. Masalan, otlar – obyekt, jarayon, hodisa, fe'llar – taxmin qilish, izoh berish, tushuntirish, topish, hisoblash, qayd etish, ko'rsatish, so'z birikmalari – muammo qo'yish, muammoni hal qilish, nuqtai nazarga qo'shilmaslik, muvofiq qarash, mutanosib nuqtai nazar, anomal hodisa, tasviriy yondashuv.

Ilmiy tahlilning an'anaviy komponentlari. Umumlashtirishning eng yuqori darajasiga ilmiy tadqiqiy ishtuzilmaviy- mantiqiy sxemasiga ega. Demak, u qo'llanishning eng keng sohasiga ham ega.

Kirish – mazkur ishda o'rganilayotgan muammolar bo'yicha ilmiy adabiyotning obzoridir, kitobxon masalaning qaysi tomonlari tadqiq etilganligi, qay jahhalari o'rganilganligi, nima o'rganilmay qolganligini va bu o'rganilmagandan mazkur tadqiqotchi nimani o'rganmoqchi bo'lganligi va nima sababdan aynan shu savollarni hozirda o'rganishga qaror qilib, zarur deb topganini aniqlay oladigan tarzda tuziladi. Bu savollarga javoblar mavzuni tanlashni asoslab beradi va shu bilan bir qatorda uning dolzarbligini ham isbotlaydi. Kirishda tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlanadi, material tahlilda tadqiq etilgan uslubni ko'rsatish ham maqsadga muvofiq. Bundan tashqari til materialining umumiy xarakteri – uning manbalari, tanlash tamoyillari, o'rganilganlik darajasini ko'rsatish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Asosiy qismda odatda, asosiy nazariy holatlар bayon etiladi. Ularda o'rganilayotgan masalalarga muallif nuqtai nazari aks etadi. Bundan tashqari tadqiqot predmetini maksimal darajadagi to'liq tavsifi va tasviri beriladi. Tadqiqotning xarakteri va maqsadlariga bog'liq tarzda tadqiqot materiali asosiy qism doirasida turli rol o'ynashi va turli o'rinnegallashi mumkin. Aksariyat hollarda olim muayyan ilmiy asarni yaratganda qandaydir yetarli darajada ishlab chiqilgan nazariyaga tayanadi. Bunday holatlarda mazkur masala birlamchi tavsifga ega bo'lgan manbalarni so'zmaso'z bayon etmasdan, ularga xavola qilish yetarlidir, ayniqsa, agarda mazkur nazariya barchaga ma'lum bo'lsa. Mazkur turdag'i ishlarda mulohaza, dalil, formulirovka bilan taqdim etilgan nazariya kam bo'lishi mumkin, u muallif nuqtai nazari, til materialini tanlash yo'naliishi, tahlil uslubi va talqini orqali o'z ifodasini topadi. Muallifning yondashuvi qay darajada yangiroq va original, uning nuqtai nazari qay darajada an'anaviy bo'lmasa, ishning asosiy qismida nazariy asoslarni bayon etish va isbot etish ko'proq hajmni egallaydi. Bunda xattoki, muallif tayyor nazariyaga tayansada, u

mazkur nuqtai nazar uchun barcha mas'uliyatni, bu nazariyaning barcha kuchli va kuchsiz tomonlari uchun javobgarlikni o'z bo'yniga oladi.

Tadqiqot asosiy qismining juda ham ahamiyatli komponenti til materialining tasviridir. Agarda to'plangan til dalillarini tadqiq etish jarayonida tadqiqotchi nuqtai nazarida bo'lgan barcha obyektlar tahlilga tortilsa, ilmiy matnda ularni tasvirlashda qat'iy va aniq tanlovga asoslanish lozim. Til materialini taqdim etish tartibga solingan bo'lishi, uning joylashuvi to'liq tahlilda aniqlangan xususiyat va qonun-qoidalarni ko'rgazmali va ishonchli ko'rsatilishi kerak.

Ilmiy matnda til materiali tavsiflashda uni tartibga solish uslubini tanlash til materiali xarakteri va matnni tuzilmasi mantig'i, mualliflik talqin mantig'i bilan shartlanadi. Bu ikki omillarning o'zaro ta'siri muallif tomonidan obyektlarning tavsifida ma'lum tizimni yaratishda o'z aksini topadi. Masalan, barcha til obyektlarining ommasini sinf, guruhlarga ajratish, bu tasnif aniqlangan belgi va qonunlar asosida amalga oshiriladi. Taqdim etilgan tasnifni tushuntirish va asoslab berish, tadqiqotning konseptual-nazariy va tahliliy-amaliy aspekti o'rtasidagi aloqani aniq ko'rish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari bunday tavsif jarayonida til materiali tahlili metodikasi namoyish etiladi. Til materialini taqdim etishning bunday uslubi tavsif va uning asosida qilingan xulosalarning ishonchliligining zaruriy darajasini ta'minlab beradi.

Jonli til tavsifning har qanday eng optimal bo'lgan tizimidan ko'ra xilma-xilroq va ziddiyatliroqdir, uni tushuntirib beruvchi nazariyadan doimo boyroq va turliroqdir. Aynan shuning uchun tadqiqotchi o'z g'oyalariga qanchalik qiziqmagan bo'lsada, uning konsepsiysi voqelikning tadqiq etilayotgan hodisalarini tushuntirish va izohlab berishning qanchalik kuchli qobiliyatiga ega bo'lmasin, u o'ziga uning imkoniyat chegaralarini yaxshi belgilab olishi lozim. Agarda tadqiqot jarayonida tadqiqotchi taklif qilgan talqinka mos kelmaydigan dalillar paydo bo'lsa, shu payt ularni izohlab tushuntirib bera olmasada, mazkur tadqiqotchi ularning mavjudligini ko'rsatib o'tishi lozim.

Ko'rsatilgan tuzilmaviy ma'no komponentlardan tashqari asosiy qismda tarixiy eksskurslar, mavzudan chekinish, turli xil izoh va tushuntirishlar berilishi mumkin.

Xulosa: xulosaning asosi bu natijalar, ya'ni muallif nuqtai nazaridan eng ahamiyatli, zaruriy natijalarini qisqartirilgan, umumlashtirilgan bayonidir.

Tadqiqotning butun asosiy qismi aynan shunga bag'ishlangan bo'lsa, nima maqsadda tadqiqot jarayonida olingan natijalarini qayta bayon etish lozim?

Xulosalarni ifodalash yuqorida tasvirlanganni oddiy takrorlash emas. Olimning asosiy qismdagi bosh vazifasi – imkon qadar tadqiqot jarayonini ishonchli taqdim etib, u yoki bu natijalarga olib keluvchi fikrning uslubi va mantig'ini tushuntirib berishdir. Asosiy qismni yozishdagi bunday yondashuvning zaruriyati ikki sabab bilan shartlangan:

1) muallif qo'llayotgan tafakkur operatsiya va uslublari, yangi axborotni olish jarayoni aksariyat holda fan uchun tadqiqotning bevosita yakuniy natijalaridan ko'ra qiziqroq;

2) olim fikrlash jarayonini tasvirlar, olingan natijalarning ishonchliligin tasdiqlaydi. Ularni tekshiriladigan qilib har qanday qiziqqan kitobxonga butun tadqiqot yo'llini kuzatish imkoniyatini berib, muallifdan ham sir qolgan ba'zi bir narsalarni ko'rish imkoniyatini beradi.

Xulosalarni ifodalash – bu natijalarni ifodalashdir. Bundan tashqari xulosalar bu asosiy qismga taqqoslagan holdagi natijalarni tavsiflashdagi yangi nuqtai nazaridir. Ular bir-birlari bilan o‘zaro ta’sirda umumlashtirilib anglaniladi. Bundan tashqari fanda olingen boshqa natijalar bilan ham taqqoslanadi. Bu xulosalarni ifodalashda asosiy qismda taqdim etilmagan yangi material birdaniga paydo bo‘lib qoladi degani emas. Aksincha, xulosalar mazkur tadqiqotda mazkur muallif tomonidan topilgan barcha yangiliklar mujassamlashgan holda aks etadi va bu mujassamlikda ilmiy tadqiqot ishining zaruriy tuzilmaviy komponenti sifatidagi xulosalarning mohiyati mavjuddir.

Natijalardan tashqari xulosada mazkur ishda erishilgan yutuqlar tufayli keyingi tadqiqotlarning aspekt va yo‘nalishlari ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin. Ya’ni amalga oshirilgan tadqiqotlarning istiqbollari aniqlanishi, olingen natijalarni qo‘llanish sohasi tavsiflanishi mumkin.

Ilmiy tahlilni umumlashtirish. Tadqiqotchining o‘z ilmiy tadqiqotlari natijasini rasmiylashtirishdagi muhim vazifalaridan biri shaklni mazmunga muvofiqligini ta’minalash. Ilmiy matnning shaklini aniqlash ishning rejasini tuzish, rubrikatsiya, illyustrativ materialning hajmi va xarakterini aniqlash, manbalarni tasniflash bilan bog‘liq. Bu tadqiqotning har bir bosqichida ilmiy asarning optimal shaklini izlashni nazarda tutadi. Asosiysi adresatgacha ilmiy axborotni xatosiz, aniq, imkon qadar qisqa muddatda yetkazib berish. Ilmiy ishni rasmiylashtirish me’yoriy talablarga javob berishi lozim, bunda ma’lumotnomma bibliografik apparatni rasmiylashtirish, iqtibos va xavola berish, qisqartirish, illyustratsiyalarni tanlash, raqamli belgilarni to‘g‘ri qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Bibliografik apparat – bu ishda xavola qilinayotgan, iqtibos berilayotgan yoki boshqacha bir shaklda qo‘llanilgan hujjatlar haqida matndan tashqari va matn ichida berilgan bibliografik ma’lumotlar majmuasidir. Bibliografik xavolalar, ro‘yxatlar, ilmiy ish ma’lumotnomma apparatining majburiy tarkibiy qismidir. Ular ilmiy tadqiqotning manbashunoslik bazasini aniqlab, yangi ishning dastlabkilar bilan aloqasini ko‘rsatish, ma’lumotlarning ishonchlilagini tekshirish, olingen natijalarni ilmiy qadrini ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Material yoki alohida natijalarni o‘zlashtirgan muallif manba va uning muallifiga xavola keltirishi lozim. Ro‘yxat ko‘rinishida bibliografik axborot taqdim etilganda ro‘yxat-lardagi kitoblar nomining ketma-ketligida bir xillikka rioya qilish lozim. Ketma-ketlik tartibi alifbo, xronologik, raqamli, mavzuli bo‘lishi mumkin. Mavzu guruhlari orasida kitob nomlarining alifbo yoki xronologik joylashuv tartibiga rioya qilinishi lozim. Bu qoidalardan har qanday chekinishlar oldindan aytib o‘tilishi lozim.

Iqtibos – muallif ilgari surgan holatlarini asoslab berish uchun biron-bir matndan olinadigan aniq, so‘zma-so‘z keltirilgan jumladir. Iqtibos haddan ziyod katta va kichkina ham bo‘imasligi lozim. U bevosita va vositali bo‘lishi mumkin.

Bevosita iqtibos iqtibos qilinayotgan manba bo‘yicha so‘zma-so‘z jumlalar shaklida keltirilib, qo‘shtirnoqqa olinadi, bunda manbada berilgan shakli va mualliflik yozuvi xususiyalari saqlanib qoladi. So‘z, gap, abzaslarni qoldirib ketish iqtibos qilinayotgan matn ma’nosini o‘zgartirilmagan holda beriladi va ko‘p nuqta bilan belgilanadi.

Vositali iqtibos (boshqa muallifning fikrlarini o‘z so‘zi bilan bayon etish, gapirib berish)da o‘zga fikrni bayon etishda aniq, baholaganda xolis bo‘lib muvofiq xavolalar berish lozim.

Qisqartmalar – so‘zning qismini yoki o‘zini to‘liqligicha matnning hajmini kamaytirish maqsadida qisqartirish.

Illyustratsiyalar – matndagi tasvir, rasm. Ular ilmiy ishning mazmunini tushuntirib beradi. Ular matnga jadval, diagramma, grafik, sxema, fotosurat, chizma, xarita shaklidagi izoh yoki tushuntirish sifatida xizmat qiladi. Ularga illyustratsiyaning nomi va raqami berilgan yozuv yoziladi.

Raqamli belgilar ilmiy axborotda raqam, so‘z raqam, algebraik shaklda berilishi mumkin.

Ilmiy tahlildagi tipik qiyinchilik va xatolar. Ilmiy-tadqiqiy ishni yozganda alohida e’tiborni bayonning mantiqiyligi, asoslanganligi, ketma-ketligi va tizimlashtirilganligiga qaratish lozim. Bundan tashqari atamalarni yuqori darajada to‘g‘ri va asoslangan holda qo‘llanishga intilish kerak. Biroq, mazkur sifatlarni ishlab chiqish – uzoq muddatli va murakkab jarayondir. U bir qator tez-tez uchraydigan xatolarni bartaraf etish va takomillashtiruvni talab qiladi.

1. Nazariy adabiyotni o‘qishning natijalari juda keng taqdim etilgan va o‘z ilmiy izlanish natijalari deyarli berilmagan. Bunday vaziyatga turli holatlar sabab bo‘ladi: masalan, tadqiqotchi to‘plangan nazariy axborotni o‘zlashtirib, o‘z materiallariga ilova sifatida talqin qila olmagan, shuning uchun u va uning o‘quvchisi o‘zga g‘oya va talqinlarda adashib/kalovlanib qolishadi. Yana bir boshqa holat: olim to‘plagan til materiali kuzatuvlarning to‘liq siklini amalga oshirish va original ishonchli xulosalarni qilish uchun yetarli emas. Natijada bu tanqislikni adabiyotdan ko‘plab iqtiboslar bilan to‘ldirish istagi paydo bo‘ladi. Bunda nazariya yana bir bora tahlil amaliyoti bilan mos kelmaydi, chunki dalillar yetarli emas, nazariya bo‘shliqqa ishlaydi.

2. Birinchiga teskari bo‘lgan vaziyat: matn tadqiqotchi tomonidan anglanmagan, nazariy jihatdan tavsiflanmagan “xom dalillar”ga to‘la. Bunday holatda hattoki, to‘plangan dalillar juda ham qiziqarli bo‘lsada, ishning ilmiy qimmati yuqori emas, chunki yuqorida ko‘p marotaba ta’kidlanganidek, ilmiy bilimlar o‘z tabiatiga ko‘ra konseptualdir. Agarda to‘plangan dalillarning ommaga avvaldan ma’lum bo‘lgan bilan mutanosib bo‘lmasa, ular bilan taqqoslagan holda tushuntirilmagan bo‘lsa, bu ishni ilmiy ish deb hisoblash qiyindir.

Bunday kamchiliklarning sabablari ham turlichadir. Tadqiqotchining yetarli darajada nazariy kompetentli emasligidan (ya’ni, bunda tadqiqotchiga bilim yoki mahorat, vaqt kelganida esa, til materialining talqinini amalga oshirish uchun qobiliyatlar yetmasligidir) ilmiy tavsifning obyektivlik tamoyilini haddan ziyod to‘g‘ri tushunishgacha.

3. Ishda tahlil qilingan materialning butun hajmi taqdim etilgan bo‘lib, matnga tahlilning butun jarayoni kiritilgan; natijada tadqiqot haddan ziyod qiyin idrok etiladi, tahlil texnologiyasi va tahliliy materialning ko‘pligi yakuniy maqsad va umumiyl tamoyillarning tushunilishini qiyinlashtiradi.

O‘z-o‘zidan ma’lumki, tahlil namunalarini tasvirlamagan ilmiy matn bo‘lishi mumkin emas. Ammo bu namunalar qat’iy tanlovdan o‘tishi lozim. Ular nafaqat tahlil texnologiyasini, balki ilmiy izlanish jarayonida aniqlangan barcha umumiyl aloqa va qonunlarni kuzatish imkoniyatini berishi uchun saralab olinishi lozim.

4.Ishda tahlil namunalari umuman taqdim etilmagan. Muallif nazariy konstruksiyalarni yaratish bilan qiziqib, o‘z konseptual tuzilmalarining kuchi va go‘zalligini namoyish etishga intiladi. Mavjud bo‘lgan til materialini batafsil tahlil qilgan bo‘lishi, nazariyalashtirish jiddiy faktografik bazaga ega bo‘lishi mumkin, ammo o‘zgacha ham bo‘lishi mumkin – konsepsiyalarni tuzishga, global g‘oyalarni ifodalashga bo‘lgan intilish daliliy materialning yo‘qligi yoki kamligi, ba’zida esa muayyan dalillarni nazar pisandlik qilmaslikning oqibati bo‘lishi mumkin. Bunday holat ko‘pincha yosh tadqiqotchilarda kuzatiladi. Matnda tahlil jarayonining tavsif va tasvirlarni yo‘qligining sabablari qanday bo‘lmasada, bunday ish o‘z ishonchliligi va isbotlanganligini yo‘qotadi.

5.Xulosalar olingan natijalarni umumlashtirish o‘rniga ishning dastlabki holatlarini takrorlaydi yoki baho mulohazalariga almashtiriladi. Bundan tashqari ko‘p holatlarda ilmiy izlanishning muayyan natijalarini aks etuvchi formulirovka o‘rniga qandaydir umumiyl holat beriladi, bu holat o‘z mohiyati bo‘yicha to‘g‘ri bo‘lsada, aynan mazkur tadqiqot jarayonida shakllangan muayyan yangi bilim bilan bog‘liq bo‘lmasligi mumkin.

Xulosalarning kamligi ishning mazmunsizligi bilan ham shartlangan bo‘lishi mumkin, haqiqiy real natijalar yo‘q. Xulosani tuzish uchun asos yo‘q. Biroq xulosalarning to‘g‘ri bo‘lmajanligi yoki ularni yo‘qligi ilmiy matnning mazmuniy jihatdan bo‘shligidan har doim ham dalolat bermaydi. O‘zgacha bo‘lishi ham mumkin: amalga oshirilgan tadqiqotning sifati haqiqiy xulosalarni ifodalashga imkoniyat beradi, ular o‘ziga xos ko‘rinishda mavjud. Biroq, olim xulosa holatlarini ajratish va ifodalash ko‘nikmalariga ega bo‘lmajanligi sabab, ular yaqqol taqdim etilmagan.

Ko‘rsatilgan xato turlari umuman olganda, ishning tuzilmasi bilan bog‘liq, uning tuzilmaviy-mantiqiy sxemasini real mazmunga to‘ldirish, ma’lum shaklda tashkillashtirilgan matnda ilmiy tadqiqot jarayonini aks etish bilan bog‘liq.

Xato va noaniqliklarning boshqa turi matnning alohida fragmentlarini yoyib ko‘rsatish bilan bog‘liq.Ular formal logika qonunlarini buzish, ilmiy muloqot qoidalariga rioya qilmaslik, til ilmiy uslubining faoliyat yuritish qonunlarini bilmaslik natijasida paydo bo‘ladi.

Formal mantiq buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan xatolar orasida eng ko‘p uchraydigan xato tavsifdag“mantiqiy doira” yoki tavtalogyadir.

Masalan, “yumshoq undosh - bu yumshoq talaffuz qilinadigan undoshdir”. Tavsifning mohiyati tavsiflanayotgan obyekt qandaydir boshqa obyektlar bilan taqqoslanib va shuning natijasida bu obyektlar o‘rtasidagi farq mezonlarini ifodalashdan iboratdir. Aynan shu tarzda tavsif jarayonida yangi bilim yaratiladi. Mazkur holatda obyekt obyektlarning boshqa sinflari bilan taqqoslanmagan, bitta belgi ko‘rsatilgan, faqat biroz o‘zgargan shaklda bo‘ladi. Demak, yangilik yo‘q, tavsif noto‘g‘ri. Xuddi shular qatoriga tushuntirish yoki isbotni qayd etish bilan almashtirish, tahlilni sanab o‘tish yoki gapirib berish bilan almashtirish ham kiradi.

Ilmiy muloqot qoidalarini buzish holatlari ham xilma-xildir: foydalilanayotgan manbaga havola bermaslik, iqtibos berilayotgan muallifning fikrini o‘zgartirgan holda iqtibos berish; barchaga ma’lum bo‘lganni asossiz qayta-qayta takrorlash; dalilsiz tanqid va h.k.lar.

Ilmiy uslub faoliyat yuritishi qonunlarining buzilish diapazoni ham kengdir: ilmiy matnda og‘zaki unsurlardan foydalanish, atama apparatiga yaxshi tushunmaslik va undan foydalana olmaslik, umumilmiy klishelarni bilmaslik va h.k.

Xatolarni ko‘rsatilgan barcha turlarini bartaraf etish, tahlil qilish va o‘zini-o‘zi tahrir qilish jarayonida amalga oshiriladi.

Ilmiy matnni tahlil qilish. Tilshunosning ilmiy faoliyatini tashkil qilish asoslariga bag‘ishlangan darslikda amaliy filologik bilimning maxsus sohasini tashkil qiluvchi tahrir qilish muammolarini tavsiflashga nima uchun bir bo‘lim ajratilgan, degan savol paydo bo‘lishi mumkin.

Bu savolga bir nechta javob berish mumkin. Ba’zi javoblar yuzada yotgan bo‘lsa, ba’zilari chuqurroqdir. Eng soddasidan boshlaymiz.

Zamonaviy dunyoda ilmiy bilim matnda qayd etilishi lozim, matn esa o‘z tuzilmasi xususiyatlari tufayli bilimni muvaffaqiyatning har xil darajasi bilan qayd etishi mumkin. Bu me’yor yuqori bo‘lishi uchun, matn uzoq davr mobaynida axborotni saqlab qolishi, o‘z zaxiralarini kitobxonadan sir tutmasdan ochib berishi uchun muharrir ishlaydi.

Bundan tashqari, tahrir -bu filolog kasbiy faoliyatining turlaridan biridir. U fundamental lingvistik bilimlar, keng umumiyligi filologik ilm, adabiy tilning barcha me’yorlarini amalda qo‘llay bilish, o‘z bilimlarini doimo yangilashga bo‘lgan xohish, intilish va mahorat, o‘tkir sezgi, o‘zining haqligiga ishontirish qobiliyati va nihoyat umuman o‘zga xususiyat, intellektual xolislik, beg‘arazlik kabi xususiyatlarni talab qiladi. Aslida muharrir o‘zining barcha bilim, mahorat va qobiliyatlarini o‘zga, shaxsan muharririga tegishli bo‘lmagan boshqa matnni takomillashtirishga yo‘naltiradi. Bu matnda boshqa ism turadi. Biroq, muharrir bo‘lmasa, matn kitobxon tomonidan tushunilmasligi va qabul qilinmasligi ham mumkin edi. Kitobxon esa, o‘z qo‘lida yangi kitobni ushlab turganida odatda, eng oxirgi varaqda mayda shrift bilan berilgan muharrirning familiyasiga o‘z e’tiborini qaratarmikin? Kamdan-kam holatlarda, faqatgina kitobxon yuqori malakali filolog, tarixchi, bibliograf, arxivshunos bo‘lgandagina. Chunki, bu kasb vakillari uchun muharrirning ismi taklif qilinayotgan matnning yuqori sifatining kafolatidir.

Va nihoyat, oxirgisi. Muharrir tahriri bu- matn tanqidining o‘ziga xos turidir. U bo‘lg‘usi kitobxon nuqtai nazaridan, ya’ni ma’lum darajada muallif nuqtai nazariga qarshi holatda amalga oshiriladi (taqqoslang: tilshunoslikni gapirayotgan-eshitayotgan holatlarning anatomiysi haqida so‘z yuritiladi). Koordinatalarning bunday almashinushi matnning haqiqiy mazmuni va osonligini tekshirishning ajoyib uslubidir. Aynan shu sababga ko‘ra, tilshunos, boshqa har qanday filolog kabi va undan farqli o‘laroq, o‘zini - o‘zi tahrir qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. Ular mazkur holatda yana bir muhim vazifani bajaradi – muallifga tajriba tarzida o‘z matniga yondashuvni o‘zgartirish, undan yiroqlashib, mazkur matnga ichidan emas, tashqaridan qarash imkoniyatini beradi. Bu esa o‘z navbatida, muallifni ichkaridan qaraganda, ko‘z ilg‘amagan matnning kamchiliklarini ko‘rish qobiliyatiga yaxshi ta’sir qiladi. Bunday o‘zgarish matn sifatini yaxshilash imkoniyatini oshiradi va muallif tomonidan o‘z-o‘zini baholash mezonlarini obyektivlashtiradi.

Agarda ilmiy matnni yaratish jarayonida muallif mazkur matn tuzilmasi, uning so‘z ma’nosida ilmiy tadqiqot izlanishlarning natija va mazmunini mutanosib ifodalash bilan band bo‘lsa, tahrir qilish jarayonida muharrir oldida ikki qo‘shaloq maqsad

turadi: muallifga qo‘lyozmani takomillashtirishda yordam berish va ushbu qo‘lyozmani kitobxon idrok etishi uchun maksimal darajada qulay qilish.

Muharrir matnning muallif va uning taqrizchilaridan farqli bo‘lgan tahlilini amalga oshiradi, bu tahlil “o‘qishning real va ijtimoiy zaruriy natijalarining tadqiqoti bashoratidir”. Bu ibora muharrir matn mazmuniga chuqur kirishi, mazkur mazmunni ifoda etilishining formal – til vositalari tizimini aniq anglab, ularni nafaqat bir-biriga muvofiqlik va mutanosiblik darajasini, balki bo‘lg‘usi kitobxon ifodasida jamiyat tuzilgan matnga qo‘ygan talablarga muvofiqlik darajasini baholashi lozim. Muharrir nafaqat mavjud bo‘lgan matnni tahlil qilishi, balki uni muallifni o‘zi qilgan tahririning optimalligiga ishontirib, kitobxonga imkoniyatlari bo‘lgan variantlardan eng yaxshisini taklif etishi lozim. Aynan shu nuqtai nazardan muharrir matnni tahrir qiladi, matn kompozitsiyasini o‘zgartirib, rubrikatsiyani aniqlashtiradi, muallif fikri yo‘nalishining mantiqiyligini tekshirib, tasvirlanayotgan faktlarning ishonchlilagini ta’minlaydi. Muharrirlik tahlilda matn kompozitsiyasi o‘rganilib, mazmunga muvofiqligi, matn yaratilgan janrga to‘g‘ri kelishi aniqlanadi.

Rubrikatsiya bilan ishlaganda boblarning nomi qay darajada o‘z vazifasini bajarayotganiga e’tibor qaratiladi: mazmun nuqtai nazardan to‘g‘ri bo‘linishi, mazkur bo‘linishning kitobxon uchun qulayligi, annotatsiya va so‘zboshi bilan bir qatorda manbaning mazmuni va tuzilmasi haqida dastlabki ma’lumotni beradi, kitobxonga zaruriy materialni izlashni osonlashtiradi.

Tahririy tahlilda matnning mantiqiyligi batafsil tekshiriladi, muallif fikrining izchilligi, tushuncha, mulohaza, tavsif, ta’rif, tushuntirish, isbot kabi mantiqiy operatsiyalarning tuzilishi matnning tuzilmasida to‘g‘ri bajarilganligi va aks etilishi ko‘rib chiqiladi.

Nihoyat, muharrir ishining eng ulkan hajmi, ishda taqdim etilgan dalil-isbotlarning ishonchlilagini baholash bilan bog‘liqdir. Muharrir e’tiboriga barcha atoqli ismlar, sana, iqtibos, fikr yoki manbalarga havolalar, hisob-kitoblar tortiladi. Bu yerda muharrir filologik faoliyatning manbalariga qaytadi, ya’ni matnda aks etilgan bilimning barcha turlarini filolog bilishi va izoh berish mahoratini namoyon etadi.

Tabiiyki, axborotga to‘lib toshgan zamonaviy dunyoda, hattoki eng bilimli muharrir barcha fanlar bo‘yicha bilimlarga ega bo‘la olmaydi. Bundan farqli o‘laroq, filologiyaning o‘zi shu qadar yiriklashib, kengayib ketganki, hattoki eng yuqori darajali ma’lumotga ega bo‘lgan filolog uning barcha soha va tarmoqlari haqida bir xil chuqur va batafsil bilimga ega emas. Shuning uchun filologik tadqiqotni tahrir qiluvchi filolog faqatgina o‘z bilimlari asosida keltirilgan isbot-dalillarning ishonchlilagini tekshira olmaydi. Biroq u boshqa bilim, ko‘nikma va mahoratga ega bo‘lishi lozim – u axborotni izlash ko‘nikmalariga mukammal ega bo‘lishi lozim. Chunki ilmiy matnni faktografik tomonini tahlil qilganida o‘zida mavjud bo‘lmagan axborotni tez topishga yordam beradi.

Agarda tahrir qilish texnikasi, ya’ni matn bilan ishlashning uslub va metodlari muharrirning professional filologik tayyorgarligi va matn mansub bo‘lgan fan sohasidagi bilimi bilan shartlansa, muharrirlik faoliyati keng ma’noda har qanday ilmiy faoliyatning eng umumiyl tamoyillari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir qator juda ham muhim obyektlarni o‘z ichiga oladi. Biron bir fan ilmiy bilim sohiblari o‘rtasida jonli, bevosita aloqasiz mavjud bo‘la olmaydi. Bu tenglarning o‘zaro harakati,

masalan, ilmiy munozara, bahs, o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorligidagi ishi bo‘lishi mumkin.

Muharrirni matn muallifi bilan aloqasi – bu o‘z ichiga ikki shaklni olgan muloqot turidir. Birinchisi, muallif o‘z sohasida professional bo‘lib, o‘z sohasidagi professional bo‘lgan muharrir bilan tengdir. Shu bilan birga muallif qaysidir darajada o‘z zimmasiga o‘qituvchi vazifasini oladi, muallif esa, o‘qitilayotgan bo‘lib qoladi. Aynan shuning uchun muharrir va muallifning bevosita aloqasi ikki karra odobli bo‘lib, ikkala ishtirokchi o‘zaro hamkorlik va o‘zaro boyishga shay turishlari lozim. Bundan tashqari muharrir mutaxassis sifatida matnga aralashuvi borasida qat’iy nazoratda turishi lozim. Chunki, aksariyat hollarda muallif bu sohada professional bo‘lmastan, muharrirning mulohaza va baholariga ishonishga majbur. Muharrir roya qilishi lozim bo‘lgan majburiy shartlar orasida quyidagilar ham bor:

- “matnning qoniqtirmaydigan sababi aniqlanib, to‘g‘ri ifodalangandan keyingina matnni to‘g‘irlash”;
- “imkon qadar kamroq to‘g‘irlashlarni kiritish, muallifning matnidan imkon qadar yiroqlashmaslik, to‘g‘irlash uchun muallifning nutq vositalaridan foydalanish”;
- “agarda, o‘zga iloj qolmaganida, o‘z so‘zlari bilan to‘g‘irlash, to‘g‘irlashlarni muallifning o‘zi kiritishi uchun har qanday kichik imkoniyatdan foydalanish”;
- “nafaqat muallif matnni, balki o‘zini-o‘zi ya’niy muallif matnni tanqidini tanqid qilish lozim”.

Shunday qilib, tahrir qilish va o‘zini-o‘zi tahrir qilish nafaqat amaliy ahamiyatga ega, u o‘zini-o‘zi tashkil qilish, o‘zini-o‘zi nazorat qilish va o‘zini-o‘zi tanqid qilish kabi kasbiy sifat va xislatlarni takomillashishiga ko‘maklashadi. Filolog matnni muharrir tanqidi jarayonida matnga kirishish va uni talqin qilish mahoratini oshiradi.

Yuqorida bayon etilganlarga xulosalab, yana bir bora ta’kidlash joizki, o‘z-o‘zini tahrir qilish va tahrir bu ilmiy matnni tuzish va ishlov berishning nafaqat ma’lum bosqichlari, bu filolog kasbiy faoliyatining juda ham ixtisoslashgan va juda muhim tomoni, uning kasbiy faoliyatining majburiy unsuridir. Filolog qay sohada – ilm-fan, dars berish yoki axborotni to‘plash va saqlashda faoliyatini amalga oshirmsasin, muharrirlik uning majburiy tomonlaridan biridir.

IV. KEYSALAR BANKI

1-mavzu

Fanning maqsad, vazifa va mazmuni

1. “Ilm –fan” tushunchasini qanday izohlaysiz?
2. Filologiya, lingvistika haqida qanday tushunchaga egasiz?
2. Ilmiy tadqiqot ishi va filolog faoliyatining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
3. Ilm va ilmshunoslik tushunchalarini qanday izohlaysiz?
4. Ilmiy tadqiqot nima?
5. Ilmiy bilimning asosini nima belgilaydi?

2-mavzu

Fan yangi bilim izlash jarayoni sifatida

1. Yangi axborotni olishning qanday yo‘llari bor, ularni sharhlang.

2. Ilmiy adabiyot tadqiqi nimadan boshlanadi?

3. ilmiy manbaning bibliografik ko‘rsatkichi.

3-mavzu

Ilmiy o‘qish: shakl, maqsad, natijalar

1. “Lingvistik tadqiqotlar uslubi” tushunchasini izohlang.

2. Fanda umuman mavjud bo‘lgan qaysi bilim olimning shaxsiy mulki xususiy bilimga aylantirilishi mumkin?

3.Tadqiqot uslubi qanday tanlanadi?

4.Eksperiment va tadqiqotning eksperimental bazasi deganda nima anglashiladi?

4-mavzu

Ilm-fanda yangilik, ilm-fan va tanqid, ilm-fan va ijod, ilmiy tahlil natijalarini dastlabki umumlashtirish

1. Bahs yuritishning muhim qoidalarini sanang.

2. Kashfiyat amalga oshirilishi uchun olim shaxsiga nisbatan qanday “tashqi” omil va holatlar zarur?

3. Nimaga olimning o‘z ishlab chiqqan konsepsiyasiga mos bo‘lmagan dalillariga e’tiborsiz bo‘lishi xavfli?

5-mavzu

Bayon etishning ilmiy uslubiy tavsifi

1. Ilmiy matnda bayon etishning qanday uslublari bor?

2. Ilmiy va o‘quv matnining janrlarini sanang va bitta janrga to‘liq ta’rif bering.

3. Ilmiy matnda bayon etish uslubiga tavsif bering.

4. Ilmiy matnning leksik, grammatik, sintaktik xususiyatlarini aniqlang.

5. Ilmiy va o‘quv matnining janrlarini nomlang va ularni jadval yoki sxema tarzida qiyoslang.



6. Ilmiy matnlarni tuzishdagi tipik xatolar nimalardan iborat.

7. Muharrir vazifasi nimalardan iborat.


8. Ilmiy matn qanday tahrir qilinadi.

9. Qo‘lyozmani nashrga tayyorlash bosqichlari nimalardan iborat.


1-ilova




3-ilova



4-ilova



5-ilova



EV. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

MUSTAQIL TA'LIM

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- me'yoriy hujatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash;

- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

Nº	Mustaqil ish mavzulari	Soati
1.	Ilmiy tadqiqot olib borish yo'llari va yo'nalishlari	4
2.	Ilmiy taqdimotni rasmiylashtirish	2

YI.GLOSSARIY

Abstraktlashtirish – boshqa barcha parametrlarni hisobga olmasdan bitta ajratilgan parametrni alohida holida ko‘rib chiqadigan tadqiqotchilik uslubi.

Analogiya – o‘xshashligi, prototipi tanlanadigan fikriy operatsiya.

Annotatsiya - titul varag‘ining orqasida joylashgan, qandaydir nashr haqidagi qisqacha axborot; hujjat, uning bir qismi yoki hujjatlar guruhining vazifasi, mazmuni, shakli va boshqa xususiyatlari nuqtai nazaridan tavsifnomasi.

Aniqlashtirish - abstraktlashtirishga teskari jarayon, yaxlit,o‘zaro bog‘liq, ko‘p tomonlama ob’ektning topilishini nazarda tutadi.

Ansipatsiya– matnning davomini oldindan ko‘ra bilish mahorati.

Amaliy ahamiyati (qimmati) – mazkur tadqiqotchilik ishi natijalaridan amaliyotda foydalanish tusi.

Dolzarblik – ushbu muammoning hozirgi fan va amaliyot uchun o‘rganilishining muhimligi; dolzarblik darajasi global tusda (fan, jamiyat ehtiyojlari, umuman amaliyotni qamrab olishi) yoki lokal tusda (fanning alohida tarmog‘i, alohida mintqa, muayyan tusdagi ijtimoiy instittlarni va shu kabilarni qamrab olishi) bo‘lishi mumkin.

Deduksiya - fikrlashning umumiyligi qonuniyatlardan xususiy faktlarga tomon rivojlanishini nazarda tutadigan fikriy operatsiya.

Dissertatsiya (lotinchadan tarjimasi - tadqiqot, mushohada) -muayyan ilmiy (akademik) malakani (darajani) olish maqsadida maxsus tayyorlangan, ommaviy muhokamaga va himoyaga qo‘yiladigan asar.

Ilmiy mavzular turlari: amaliy, aralash, nazariy.

Ideallashtirish – tadqiqotchining nuqtai nazarida hodisa yoki jarayonning ideal obrazini, ya’ni nazariy modelning yaratilishi; farazlarni ishlab chiqishda qo‘llaniladi.

Induksiya - xususiy faktlarni umumlashtirish mantiqiga asoslangan fikriy operatsiya.

Ilmiy tadqiqot uslubi – bu muayyan bilish maqsadini hisobga olgan holda muayyan bilish vazifalarini hal etishga qaratilgan aqliy va (yoki) amaliy operatsiyalar (rusum-qoidalar) tizimidir.

Ilmiy muammo – bu ilmiy-tadqiqotchilik ishi mavzuini belgilaydigan murakkab nazariy va (yoki) amaliy vazifalar majmuidir. Muammo tarmoq, tarmoqlararo, global bo‘lishi mumkin.

Ilmiy ish - boshqa har qanday ishdan o‘zining maqsadi yangi ilmiy bilimni olishi bilan farq qiladi. Ayni shu ish jarayonida voqelik haqidagi ob’ektiv bilimlar ishlab chiqiladi va bir tizimga solinadi.

Ilmiy mavzu – bu yechimni talab qiladigan murakkab vazifadir. Ilmiy-tadqiqotchilik ishi mavzui mauyyan ilmiy yo‘nalishga yoki ilmiy muammoga tegishli bo‘lishi mumkin.

Ilmiy yo‘nalish - deganda tadqiqot o‘tkazish sohasidagi fan, fanlar yoki ilmiy muammolar majmui tushuniladi.

Ilmiy ish rejasi - jamuljam holida uning mohiyatini aks ettiradi. Bu muallif aytmoqchi bo‘lgan narsaning sxematik ifodasidir.

Konspekt – o‘rganilayotgan manbani qisqa, izchil bayoni bo‘lib, asarning mantig‘i va aloqadorligini saqlab qoladi. U asosiy xulosalar va qoidalar, faktlar, dalillar, usullarni o‘z ichiga oladi; tuzuvchining materialga nisbatan munosabatini aks ettiradi.

Konspekt turlari:

Rejali – oldindan tayyorlangan reja yordamida tuziladi: uning har bir bandiga konspektning tegishli qismi mos keladi.

Tahliliy - ko‘pincha bir necha manbadan foydalananib aniq mavzuni ochib beradi.

Erkin - ko‘chirmalar, ba’zan tezislар aralashmasidan iborat bo‘ladi.

Matnli - ko‘pincha mantiqiy o‘tishlar bilan bog‘langan ko‘chirmalardan tashkil topadi.

Tematik - matnning butun mazmunini aks ettirmaydi, faqat muayyan, aniq mavzuni ishlaydi, qo‘ylgan savolga javob beradi.

Xronologik – hodisalarning o‘zini ko‘rsatish asosida ularning xronologik izchillagini aks ettiradi.

Kuzatish - eng ko‘p axborotli tadqiqot uslubi bo‘lib, u bo‘lgan va o‘rganilayotgan jarayonlar va hodisalarni chetdan turib ko‘rishga imkon beradi.

Ko‘zdan kechirish uchun mutolaa - Matn bilan tanishib chiqish va o‘rganishdan oldin odatda kitobga ko‘z yogurtirib chiqiladi. Kitobning mazmuni, boblar yoki paragraflar nomlari, asar muallifi bilan tanishib olish shunday qilinadi.

Maqola – bu mustaqil ilmiy tadqiqot bo‘lib, u dolzarb ilmiy muammo bo‘yicha o‘z fikrlarini bayon qilishdir.

Metodologiya - bu ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining ilmiy tamoyillari va usullari tizimi haqidagi ta’limot.

Modellashtirish — tadqiqotchilikning modelning qurilishini nazarda tutadigan nazariy uslubi.

Mundarija - mavzu bayonining rejasi, kitobning ko‘rsatkichi.

Muammo - bu bilim bilan bilmaslik o‘rtasidagi o‘ziga xos chegaradir.U oldingi bilim yetarli bo‘lmagan, yangi bilim esa hozircha rivojlangan shaklga ega bo‘lmagan holatda paydo bo‘ladi.

Mutolaa – bu nutqiy faoliyatning murakkab turi bo‘lib, sof texnik jihatiga mutolaa qilish va tez o‘qish malakalarini orttirish va ijodiy jihatiga – matndan zarur axborotlarni olishdan iborat.

Nazariy asos – mazkur tadqiqot tayanadigan konseptual qoidalar (g‘oyalalar, tamoyillar).

Reja – eng qisqa yozuv bo‘lib, u fikr bayonining izchilligini aks ettiradi va umumlashtiradi; matnning mazmunini ochib beradi; manbaning mazmunini xotirada qayta tiklaydi; konspekt va tezislardan o‘rnini bosadi; har xil yozuvlarni (ma’ruza, axborot, hisobot) tuzishga yordam beradi; bajarilgan yozuvni yaxshilaydi; o‘zini o‘zi nazorat qilishni tezlashtiradi; e’tiborni jamlaydi; yaxshi tanish bo‘lgan matnni xotirada jonlantirishuchun ishlataladi.

Referat – bir yoki bir necha manbalarda mavjud bo‘lgan g‘oyalarning qisqacha yozuvi, u har xil nuqtai nazarlarni qiyoslash va tahlil qilish mahoratini taqozo etadi. Referatlar turlari: axborotchilik (referat – konspektlar), indikativ (referat – rezyume), monografik, tahliliy.

Referatlash - qandaydir masalani bir yoki bir necha manbalarning tasniflanishi, umumlashtirilishi, tahlili va sintezi asosida bayon qilinishini nazarda tutadi.

Sarlavha - ilmiy adabiyotda mavzuni bildiradi.

Suhbat – empirik uslub bo‘lib, javob beruvchi bilan shaxsiy aloqani nazarda tutadi.

So‘zboshi - muallif qo‘ygan vazifalar bayoni; nashr yoki qayta nashrning zaruratinini asoslaydi.

So‘ngso‘z (xotima): yakun, qisqacha xulosalar.

Sintez - fikriy operatsiya, uning jarayonida aniqlangan elementlar

va faktlardan yaxlit manzara qayta tiklanadi.

Tadqiqot dolzarbligini asoslash - ilmiy bilishning umumiy jarayoni sohasida mazkur mavzuni o‘rganish zaruratini izohlashni bildiradi.

Tahlil – bu tadqiqotning nazariy uslubi bo‘lib, tadqiq qilinayotgan jarayon yoki hodisani maxsus va teran mustaqil o‘rganish uchun uni tarkibiy qismlarga ajratishni nazarda tutadigan fikriy operatsiyadir.

Tadqiqot farazi - bu bevosita kuzatilayotgan hodisa, o‘rganilayotgan hodisaning tuzilishi yoki uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqalar tusi haqidagi ilmiy asoslangan taxmindir. Farazlar mayjud faktlar asosida ishlab chiqiladi. Xulosa sifatidagi faraz ob’ektiv voqelikda o‘z ildizlariga ega bo‘ladi, fikrning bevosita kuzatilayotgan hodisalardan ularning sababli izohlanishigacha bo‘lgan harakati hisoblanadi.

Tadqiqot vazifasi - bu ilgari surilgan ilmiy farazga muvofiq maqsadga erishish uchun yo‘llar va vositalarning tanlanishidir.

Tasniflash - o‘rganiladigan ob’ektlar, faktlarni o‘rganishning nazariy uslubi; hodisalarni bir-biriga nisbatan tartibga solishga asoslanadi.

Tadqiqot uslubiyoti (texnologiyasi) – tadqiqot usullarining bir tizimli majmui, tadqiqot uslublari, usullari, texnikalarini qo‘llanish va ular yordamida olingan natijalarni talqin qilish qoidalari tizimi. Uslubiyot o‘rganiladigan ob’ekt xarakteriga, tadqiqot metodologiyasi, maqsadlariga, ishlab chiqilgan uslublar, tadqiqotchi malakasining umumiy darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Tadqiqot maqsadi - bu tadqiqotchi o‘z ishini yakunlashda erishishni xohlagan pirovard natijadir. Faraz asosida ifodalanadi.

Tajriba - umumiy empirik tadqiqot uslubi bo‘lib, u boshqariladigan sharoitda o‘rganilayotgan obyektlar ustidan qat’iy nazorat yuritilishiga asoslanadi.

Tadqiqot obyekti - bu muammoli vaziyatni yuzaga keltiradigan muayyan jarayon yoki hodisa, bu muammoning o‘ziga xos tashuvchisi, tadqiqotchilik faoliyati yo‘naltirilgan narsa.

Tadqiqotning obyektlı sohasi – bu fan va amaliyotning tadqiqot ob’ekti joylashgan sohasi bo‘lib, amaliyotda u, masalan, matematika, biologiya, iqtisodiyotning u yoki boshqa ilmiy ixtisosligiga muvofiq bo‘lishi mumkin.

Tajriba ishi – birmuncha yuksak natijalarni olishni ko‘zlab, jarayonga oldindan belgilangan o‘zgarishlar, innovatsiyalarni kiritish uslubi.

Tadqiqot predmeti - obyektning aniq bir qismi bo‘lib, uning ichida izlanish olib boriladi. Hodisalar, ularning ayrim tomonlari tadqiqot predmeti bo‘lishi mumkin. Tadqiqotchi ilmiy izlanishlar natijasida tadqiqot ob’ekti haqida oladigan yangi ilmiy bilim sifatida belgilash mumkin.

Tadqiqot dasturi - bu aniq mavzu ustidagi bo‘lg‘usi ishning mohiyati va tarkibiy qismlari haqidagi aniq tasavvurdir.

Taqdimot – o‘quv (ilmiy) ish yakunlari haqidagi og‘zaki axborot.

Tekshirish - bu tadqiq qilinayotgan ob’ektning u yoki boshqa darajadagi teranlik va detallashtirish bilan o‘rganilishi bo‘lib, bu tadqiqot maqsadlari va vazifalari bilan belgilanadi.

Tezislar - o‘qib chiqilgan (yoki og‘zaki bayon qilingan) parchani takrorlaydi, lo‘nda ifodalaydi va xulosalaydi; har doim dalillarga ega bo‘ladi, mazmun mohiyatini aniqlaydi; materialni umumlashtirish imkonini beradi; maqola, ma’ruza, dissertatsiyani tanqidiy tahlil etishda qimmatlidir.

Umumlashtirish - muhim fikriy operatsiyalardan biri bo‘lib, uning natijasida ob’ektlar va ular munosabatlarining nisbatan barqaror xususiyatlari ajratiladi va qayd qilinadi.

Faraz (gipoteza) (qadimgi grek tilidan - asos, taxmin) — oldindan o‘rganilgan faktlar, hodisalar, jarayonlarning muayyan majmuiga asoslangan, ularni izohlash uchun ilgari suriladigan va tasdiqlanishi yoki inkor etilishi lozim bo‘ladigan nazariy taxmin.

Esse – bu muallifning alohida individual pozisiyasiga ega erkin shakldagi bayon bo‘lib, qandaydir buyum yoki qandaydir sabab bo‘yicha umumiyligi yoki oldindan bildirilgan fikr-mulohazalardan iboratdir.

Yangilik – fanning shu tarmog‘iga yoki umuman fanga ulush darjasini; natijalar har xil tusda bo‘lishi mumkin –natijalar yoki ularning bir qismi yangi bo‘lishi mumkin, shuningdek natijalarning katta qismi yangilik sifatida qayd qilinmasligi ham mumkin.

Qiyoslash - ob’ektlarning o‘xshashligi va farqlarini, umumiyligi va alohidaligini

YII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. 8-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
2. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma’sulmiz. 9-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
5. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliv saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi. – T.: O‘zbekiston, 2014.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim - tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloq qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risida”gi 1997 yil 6 oktyabrdagi №1869-sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi 1998 yil 5 yanvardagi 5-sonli Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Uzluksiz ta’lim tizimini darsliklar va o‘quv adabiyotlari bilan ta’minalashni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1998 yil 5 yanvardagi 4-sonli Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagli 343 - sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Oliy o‘quv yurtlari talabalariga stipendiyalar to‘lash tartibi va miqdorlari to‘g‘risida”gi 2001 yil 17 avgustdagli 344 - sonli Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 1 martdagli “Nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatini lisenziyalash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risidagi 100-sonli Qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Oliy ta’lim muassasasiga pedagoglarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risidagi 2006 yil 10 fevraldagli 20-sonli Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16-fevraldagli “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 25-sonli Qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlash xususidagi 2010 yil 18 iyundagi 118-sonli Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2010 yil 28 iyuldagagi 4232-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2011 yil 20 maydagagi 1533-sonli Qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2012 yil 24 iyuldagagi 4456-sonli Farmoni.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 278-sonli Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “O‘rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi 2012 yil 18 oktyabrdagi 297-sonli Qarori.

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2012 yil 28 dekabrdagi 365-sonli Qarori.

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 29 dekabrdagi “Respublika oliy ta’lim muassasalari reytingini baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 371-sonli Qarori.

23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2001 yil 16 avgustdagagi 343-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli Qarori.

24. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 2 martdagagi “Magistratura to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risidagi 36-sonli Qarori.

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4732-sonli Farmoni.

26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 242-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Kothari C.R. Research Methodology: Methods and Technique. –New Dalhi, 2004.
2. Ne’matov H. Lingvistik tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari. – Buxoro, 2006.
3. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: Akademnashr, 2010.

4. Saparniyozova M., Ahmedova N. Bitiruv malakaviy ishini bajarish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. // Uslubiy qo‘llanma. // – Toshkent, 2013.
5. Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari 4-kurs talabalari uchun bitiruv malakaviy ishlarni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar. // Tuzuvchi: Umarova S.// – Toshkent, 2011.
6. Rahmatullaev Sh. Ilmiy tadqiqot asoslari. – Toshkent, 2002

IV. Elektron ta’lim resurslari

27. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi: www.edu.uz
28. O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi: www.aci.uz
29. Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha Muvoqiflashtiruvchi kengash: www.ictcouncil.gov.uz.
30. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti: www.tuit.uz.
31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot markazi sayti: www.press-service.uz
32. O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portalı: www.gov.uz
33. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug’ati, 2004, UNDP DDI:
34. O‘zbek internet resurslarining katalogi: www.uz
35. <http://gov.uz>
36. <http://www.ziyonet.uz>
37. <http://www.connect.uz>
38. <http://www.uzsci.net>
39. <http://www.edu.uz>
40. <http://www.pedagog.uz>
41. <http://dx.doi.org/10.5977/jkasne.2013.19.3.307>